

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XOLLIYEV AZIZBEK GO‘ZALOVICH

**ROSSIYA XIX ASRNING OXIRGI CHORAGI - XX ASR BOSHIDA:
XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN IQTISODIY ALOQALARNI
TASHKIL QILISH VA AMALGA OSHIRISHNING TARIXIY TAJRIBASI
(BUYUK BRITANIYA VA AQSH MISOLIDA)**

07.00.03 – Jahon tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the abstract of dissertation of doctor of sciences (DSc)

Xolliyev Azizbek Go‘zalovich

Rossiya XIX asrning oxirgi choragi - XX asr boshida: xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni tashkil qilish va amalga oshirishning tarixiy tajribasi (Buyuk Britaniya va AQSH misolida).....

3

Холлиев Азизбек Гузалович

Россия в последней четверти XIX - начале XX века: исторический опыт организации и осуществления экономических связей с зарубежными странами (на примере Великобритании и США).....

31

Kholliev Azizbek Guzalovich

Russia in the last quarter of the 19th - early 20th centuries: the historical experience of organization and implementation of economic connections with foreign countries (on the example of Great Britain and the USA).....

61

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works

66

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XOLLIYEV AZIZBEK GO‘ZALOVICH

**ROSSIYA XIX ASRNING OXIRGI CHORAGI - XX ASR BOSHIDA:
XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN IQTISODIY ALOQALARNI
TASHKIL QILISH VA AMALGA OSHIRISHNING TARIXIY TAJRIBASI
(BUYUK BRITANIYA VA AQSH MISOLIDA)**

07.00.03 – Jahon tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Тошкент – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.DSc/Tar153 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

-

Rasmiy opponentlar:

Raxmon Farmonov
tarix fanlari doktori, professor

Mirzoxid Akramovich Raximov
tarix fanlari doktori, professor

Raxbar Ergashevna Xalikova
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «14» *iyul* soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-76-51; faks: (99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1780 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-76-51; faks: (99871) 276-76-51.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «27» *iyun* kuni tarqatildi.

(2023-yil «27» *iyun* da 23 - raqamli reyestr bayonnomasi).



A.K.Kirgizbayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

S.B.Tilabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, tarix fanlari nomzodi.

N.X.Oblomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirda xalqaro maydonda ro'y berayotgan tarixiy voqealar va jarayonlar o'zining o'ta murakkabligi va keng ko'lamligi bilan ajralib turmoqda. Globallashuv sharoitida mavjud bo'lgan har qanday siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar jahon hamjamiyati mamlakatlari taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon bozorlarida vaziyat murakkablashib bormoqda, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar, tabiiyki, tubdan o'zgarmoqda. Davlatlararo raqobat nihoyatda kuchaymoqda. Ayniqsa, iqtisodiy aloqalarni tashkil qilish va amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlar dunyoning turli davlatlari o'rtasidagi munosabatlarning holatini belgilab berishda asosiy o'rin egallamoqda. Xususan, ulkan qudrat va salohiyatga ega davlatlarning o'zaro aloqalari jahon miqyosidagi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy vaziyatning barqarorligini ta'minlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon miqyosida yetakchilikka da'vogar davlatlarning o'zaro manfaatlari va ularning xalqaro vaziyatga ta'siri, savdo-iqtisodiy munosabatlari, dunyo bozorlari uchun kurashning evolyutsiyasi, rivojlangan mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish bo'yicha boy tarixiy tajribasini o'rganish masalasi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, turli mamlakatlarda tarixiy manfaatlar asosida shakllantirilgan iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, tarixan shakllangan xalqaro savdo yo'llarini yangidan rivojlantirish, o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy aloqalarni o'rnatishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xorijiy mamlakatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli aloqalarni kengaytirish, Rossiya, AQSH va Buyuk Britaniya kabi davlatlar bilan munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, ular bilan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish, ushbu ishlarni samarali va muvofiqlashtirilgan holda olib borish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari muhim o'rin egallamoqda. Zero, "Bugungi kunda O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rni va mavqeiga ega. Biz dunyodagi barcha davlatlar bilan yaqindan hamkorlik qilish va amaliy muloqot uchun ochiqmiz"¹. Shu boisdan, ushbu mamlakatlarning tarixini chuqur tadqiq etish, tashqi iqtisodiy aloqalarni tashkil qilish va amalga oshirish bo'yicha to'plagan tajribasini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qolaversa, bunday vaziyatda mamlakatimiz iqtisodiyotini muntazam takomillashib borishini ta'minlaydigan mexanizmlarni joriy etish, barqaror iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liq vazifalarni puxta belgilab olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, milliy taraqqiyot strategiyasini ustuvor yo'nalishlaridan biri ham shundan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимиغا киришиш тантанали маросимиغا бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2016. - Б.6.

to'g'risida", 2018-yil 5-apreldagi PF-5400-son "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 23-apreldagi PQ-4297-son "Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma'muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 29-iyundagi PQ-3818-son "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va sohaga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsion tadqiqot O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishida innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². Rossiya iqtisodiyoti, tarixi, siyosati va madaniyatini har tomonlama o'rganish doirasida xorijiy davlatlar, shu jumladan, Buyuk Britaniya va AQSH bilan iqtisodiy aloqalarning bosqichma-bosqich tarixiy rivojlanishiga oid ilmiy tadqiqotlar dunyoning bir qator yetakchi tadqiqot markazlari va oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilmoqda, xususan: M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, RFA Rossiya tarixi instituti, RFA Sankt-Peterburg Tarix instituti, RFA Umumiy tarix institutining Shimoliy Amerika tadqiqotlari markazi, London universiteti (Buyuk Britaniya), Nottingem universiteti (Buyuk Britaniya), Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya), Nyu-York universiteti (AQSH), Garvard universiteti (AQSH) va boshqalar.

Dunyoda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida Rossiyaning xorijiy mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya va AQSH bilan iqtisodiy aloqalarni tashkil etish va amalga oshirish sohasida tarixiy tajribani to'plash bo'yicha quyidagi ilmiy natijalarga erishildi: statistik ma'lumotlar negizida Rossiyaning XIX - XX asr boshida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi dinamikasi, uning tashqi savdosi, "eng muhim" tovarlar va tovar guruhlari eksport-importining jismoniy va pul hajmidagi o'zgarishlar qayd qilingan (M.V.Lomonosov nomidagi MDU); Rossiyada xorijiy tadbirkorlar faoliyatini tartibga solishning huquqiy jihatlari, rivojlanish bosqichlari va yo'nalishlari, Rossiya iqtisodiyotiga xorijdan, shu jumladan, Buyuk Britaniya va AQSHdan, sarmoyalar kirib kelishining tashkiliy shakllari va ko'lami dinamikasi ko'rsatib berilgan (RFA Rossiya tarixi instituti); Rossiya imperiyasi iqtisodiy rivojlanishining xususiyatlarini tahlil qilish doirasida proteksionizmning tashqi savdo xarakteriga va Rossiya - Buyuk Britaniya siyosiy munosabatlarning

²Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий-тадқиқотлар шарҳи <https://www.msu.ru/>, <https://iriran.ru/>, <http://www.spbiiran.ru/>, http://www.hist.msu.ru/Dynamics/Foreign_trade.htm, <https://www.london.ac.uk/>, <https://www.nottingham.ac.uk/>, <https://www.cam.ac.uk/>, <https://www.nyu.edu/> ва бoshqa ресурслар асосида тайёрланди.

rivojlanishiga ta'siri ko'rsatilib, o'zaro savdodagi tovarlar eksport-importning tarixiy xususiyatlari aniqlangan (RFA Sankt-Peterburg Tarix instituti); rus-amerika munosabatlarining oyoqqa turishi va rivojlanishining tarixiy zamini va shart-sharoitlari o'rganilgan (RFA Umumiy tarix institutining Shimoliy Amerika tadqiqotlari markazi); Britaniya arxiv materiallarini jalb qilgan holda Rossiya tashqi savdo faoliyatining tashkiliy, infratuzilmaviy va moliyaviy jihatlari hamda ularda Buyuk Britaniya va AQSHning ishtiroki tahlil qilingan (Nottingem universiteti, Buyuk Britaniya); XIX asr oxiri - XX asr boshlari tarixiy sharoitida Rossiya imperiyasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, shu jumladan, tashqi iqtisodiy aloqalari bo'yicha statistik ma'lumotlar bazasi yaratilgan (Kembrij universiteti, Buyuk Britaniya); Britaniya va Amerika sarmoyasini xorijiy davlatlarga, shu jumladan, Rossiya imperiyasiga eksport qilishning asosiy yo'nalishlari va hajmi ochib berilgan (London universiteti, Buyuk Britaniya va Nyu-York universiteti, AQSH); AQSH sug'urta kompaniyalarining rivojlanish tarixini o'rganish doirasida ularning Rossiya bozoridagi faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlar asosida tizimli qo'llanmalar yaratilgan (Garvard universiteti, AQSH).

Bugungi kunda xorijiy ilmiy va tadqiqot markazlari Rossiyaning tashqi iqtisodiy aloqalarni tashkil qilish va amalga oshirishdagi tarixiy tajribasini o'rganish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda o'z tadqiqotlarini olib bormoqda: tashqi iqtisodiy aloqalarning Rossiya imperiyasi tashqi siyosatining umumiy mazmuni bilan bog'liqligi, tashqi savdoning iqtisodiy jarayonlar dinamikasidagi o'rni, proteksionistik siyosatning xorijiy davlatlar, shu jumladan, Buyuk Britaniya va AQSH bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning tabiati va hajmiga ta'siri, muayyan tarixiy davrlarda Rossiya iqtisodiyotining jahon xo'jaligiga integratsiyasi xususiyatlari.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dissertatsiyada tadqiq qilingan mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni ularning mazmuni, davriy chegaralari va tavsifiy xususiyatlaridan kelib chiqib to'rt guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq: birinchisi, Rossiya imperiyasi davrida nashr qilingan ishlar; ikkinchisi, sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar; uchinchisi, 1991 yildan keyingi davrda yaratilgan asarlar; to'rtinchisi, xorijiy mualliflar tomonidan yozilgan adabiyotlar.

I.I.Gratsianskiy, F.Martens, D.I.Mendeleyev, S.O.Gulishambarov, B.F.Brandt, V.S.Ziv va boshqalardan iborat birinchi guruh mualliflar qatoriga tarixchilar, huquqshunoslar, iqtisodchilar, davlat arboblari va xizmatchilari kirgan. Ularning aksariyati, tadqiq qilinayotgan davrning zamondoshlari bo'lib, Rossiyaning xorijiy mamlakatlar, shu jumladan, Buyuk Britaniya va AQSH bilan iqtisodiy aloqalarining amalga oshirilishi bilan bog'liq voqealar va jaryonlarining borishiga shohid bo'lganlar va o'sha davr sharoitlaridan kelib chiqib o'z tadqiqotlarni³ olib

³ Грацианский И.И. Собрание ныне действующих торговых трактатов России с иностранными государствами. - Санкт-Петербург: Хромолит и Тип. В. Грацианского, 1877; Мартенс Ф. Собрание трактатов и конвенций, заключенных Россией с иностранными державами. Том IX(X). - Санкт-Петербург: Тип. Министерства путей сообщения, 1892; Рудченко И.Я. Исторический очерк обложения торговли и промышленности в России. - Санкт-Петербург, 1893; Фабрично-заводская промышленность и торговля России. / под ред. Д.И. Менделеева. - Санкт-Петербург: Тип. В.С. Балашева и К^о, 1893; Гулишамбаров С.О.

borgan. Ushbu tadqiqotlarda dissertatsiya mavzusining ayrim masalalariga oid faktik ma'lumotlar keltirilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, xorijiy sarmoyalar hatto sovet hukumatining dastlabki o'n yilliklarida ham sanoat va savdo sohalarida konsessiyalar shaklida faoliyat olib borgan. Shunday ekan, avvalgi davrning tarixiy tajribasini o'rganish masalasi XX asr 20-30-yillar mualliflarning e'tiborini o'ziga qaratgani bejiz emas. P.V.Ol, M.A.Kox, L.G.Lyandau, S.L.Ronin, L.Ya.Eventov o'z tadqiqotlarda⁴ G'arb sarmoyalari, jumladan, Buyuk Britaniya va AQSH sarmoyalarining kiritilishini Rossiya iqtisodiyotidagi ahamiyatiga baho bergan va ayrim tarmoqlarda ularning ustunligini ta'kidlagan.

Sovet davrining keyingi yillarida I.F.Gindin, M.P.Vyatkin, L.E.Shepelev, D.I.Oparin, T.M.Kitanina, A.M.Solovyova va boshqalarning nashr qilingan ishlarida⁵ XIX asrning oxirgi choragi - XX asr boshida Rossiyada sanoat, savdo, moliya, transportning rivojlanishi va unga Buyuk Britaniya va AQSHning qo'shgan hissasiga oid bir qator faktik ma'lumotlar keltirilgan. Biroq, ushbu jarayonda mavjud bo'lgan tendensiyalar va erishilgan natijalarni hamda hukumatning iqtisodiy siyosatini tanqidiy tahlil qilishda mafkuraviy qarashlar ta'siri ko'zga tashlanadi.

O'z navbatida, bevosita Rossiyaning Buyuk Britaniya va AQSH bilan iqtisodiy aloqalarining turli shakllari, xalqaro moliya markazlarining Rossiya iqtisodiyoti bilan munosabatlaridagi muayyan jihatlari bir qator mualliflarning, xususan N.N.Bolxovitinov, A.A.Fursenko, A.V.Ignatyev, G.P.Kuropyatnik, V.V.Lebedev, B.F.Ananich, M.Lachaeva, M.I.Vekselman asarlarida⁶ ko'rib

Всемирная торговля в XIX в. и участие в ней России. - Санкт-Петербург: Тип. В. Киршбаума, 1898; Брандт Б.Ф. Иностранные капиталы. Их влияние на экономическое развитие страны. Ч.1-4. - Санкт-Петербург: Тип. В. Киршбаума, 1898-1901; Мигулин П.П. Внешняя торговля России и её торговый флот. - Санкт-Петербург: Т-во. Художественной печати, 1911; Бородин Н.А. Северо - Американские соединенные штаты и Россия. - Петроград: Огни, 1915; Зив В.С. Иностранные капиталы в русской горнозаводской промышленности. - Петроград: Тип. Ред. период. изд. М-ва фин., 1917.

⁴ Кox M.A., Oль П.В. Нефтяная промышленность. / под общ. ред. А.Ф. Арского. - Москва: Гос. изд-во, 1925; Ляндау Л.Г. Иностранный капитал в дореволюционной России и в СССР. - Москва, - Ленинград: Гос. изд-во, 1925; Oль П.В. Иностранные капиталы в России. - Петроград: Ин-т экон. Исследований, 1922; Эвентов Л.Я. Иностранные капиталы в русской промышленности. - Москва, - Ленинград: Гос. Соц.- эконом. изд.-во., 1931; Ронин С.Л. Иностранный капитал и русские банки: К вопросу о финансовом капитале в России. - Москва: Изд-во Ком. ун-та им. Я.М. Свердлова, 1926.

⁵ Гиндин И.Ф. Русские коммерческие банки. - Москва: Госфиниздат, 1948; Монополистический капитал в нефтяной промышленности России, 1883-1914. Документы и материалы. / Сост. Гулиев А.Н., Найдель М.И., Нардова В.А. и др. - Москва, - Ленинград: Наука. Ленингр. отд-ние, 1961; Монополии и иностранный капитал в России. / Вяткин М.П. (отв. ред.). - Ленинград: Изд-во Акад. наук СССР, 1962; Опарин Д.И. Схематический анализ развития внешней торговли России за 175 лет (1742 - 1917 гг.) // Методологические вопросы в статистических исследованиях: [сборник статей] / [ред. Т.В. Рябушкин]. - Москва: Наука, 1968. - С.96-128; Шепелев Л.Е. Акционерные компании в России. - Ленинград: Наука. Ленинградское отделение. 1973; Соловьёва А.М. Железнодорожный транспорт в России во второй половине XIX в. - Москва: Наука, 1975.; Унинг ўзи. Промышленная революция в России в XIX в. - Москва: Наука, 1990; Китанина Т.М. Хлебная торговля России в 1875-1914 гг. (очерки правительственной политики). - Ленинград.: Наука. 1978.

⁶ Старая Юзовка: 1869-1905 / Под ред. Н. Н. Попова. - Москва: - Киев: История заводов, 1937; Попытки С.Ю. Витте открыть американский денежный рынок для русских займов (1898-1902 гг.) [Публикация документов] Подгот. Б.А. Романов и Б.Ф. Ананьич // Исторический архив. 1959, № 1, 2. - С.123-140, 115-135; Фурсенко А.А. Из истории русско-американских отношений на рубеже XIX-XX вв. / Из истории империализма в России: Сборник статей. (Отв. ред. М.П. Вяткин). - Москва, -Ленинград: Акад. наук СССР, 1959. -С.219-269; Игнатъев А.В. Русско-английские отношения накануне первой мировой войны. (1908-1914 гг.). - Москва: Соцэкгиз, 1962; Лебедев В.В. Русско-американские экономические отношения (1900-1917 гг.).

chiqilgan. Shu bilan birga, sovet davrining oxirgi yillarida nashr qilingan A.G.Dongarovning tadqiqotida xorijiy sarmoyalar mavzusini yoritishda bir tomonlama yondashuvdan xolis bo'lishga urinish ko'zga tashlanadi.

1991 yildan keyingi davrda olib borilgan tadqiqotlarda tashqi iqtisodiy aloqalar tarixini sivilizatsion yondashuv negizida kompleks tarzda yoritishga harakatlar ko'zga tashlandi.

Rossiyada xorijiy tadbirkorlarning faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasining o'ziga xos xususiyatlari, tashqi iqtisodiy aloqalarni idora qilish muassasalarining ish olib borish mexanizmlari, iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish masalalari⁷ ularda o'z aksini topgan.

Savdo va moliya sohalari, sanoat, transport va kommunikatsiya tarmoqlarining holati hamda Rossiya imperiyasining tashqi iqtisodiy aloqalarining umumiy rivojlanishida mavjud bo'lgan tendensiyalarni tahlil qilingan ishlarda⁸ dissertatsiya mavzusiga oid faktik materiallar keltirilgan.

-М.: Международные отношения, 1964; Болховитинов Н.Н. Русско-американские отношения 1815-1832. - Москва: Наука, 1975; Ананьич Б.В. Россия и международный капитал. 1897-1914: Очерки истории финансовых отношений. - Ленинград: Наука. Ленинградское отделение, 1970; Куропятник Г.П. Россия и США. Экономические, культурные и дипломатические связи. 1867-1881. - Москва: Наука, 1981; Лачаева М. Английский капитал в меднорудной промышленности Урала и Сибири в начале XX века / Исторические записки. Т. 108. - Москва: Наука, 1982. - С.60-108; Вексельман М.И. Российский монополистический и иностранный капитал в Средней Азии (конец XIX - начало XX в.). - Ташкент: Фан, 1987; Донгаров А.Г. Иностранный капитал в России и СССР. - Москва: Международные отношения, 1990.

⁷ Иностранное предпринимательство и заграничные инвестиции в России: Очерки. - Москва: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 1997; Высшие и центральные государственные учреждения России. 1801-1917. Т.2. - Санкт-Петербург: Наука, 2001; Смирнов С.А. Правовое регулирование иностранного предпринимательства в России во второй половине XIX - начале XX веков: Дисс.... канд. юр. наук. - Волгоград, 2002; Соловьев Я.В. Министерство финансов Российской империи в 1858 - 1903 гг.: организация и функционирование: Автореф. дисс... канд. ист. наук. - Москва, 2003; Разманова Н.А. Институциональные преобразования системы управления финансами в пореформенной России. // Гуманитарные науки. №3, 2011. -С.65-74; Головина И.А. Правовое регулирование иностранных инвестиций в нефтяную промышленность в дореволюционный период // Труды Института государства и права Российской академии наук. № 4, 2012. - С.122-136; Филиппова А.В. Становление и развитие административно-правового регулирования деятельности иностранных коммерческих организаций в России // Актуальные проблемы российского права. 2015. № 8 (57) август. - С.58-63; Шкунов В.Н. Государственно-правовое регулирование внешней торговли Российской империи в XVIII-XIX веках. - Саратов: Ай Пи Эр Медиа, 2018.

⁸ Бовыкин В.И. Финансовый капитал в России накануне Первой мировой войны. - Москва: РОССПЭН, 2001; Фукс И.Г., Матвейчук А.А., Казарян С.А. Нефтяные родники России: исторические очерки. - Москва: Фонд развития отечественного книгоиздания им. Д.И.Сытина, 2004; Криворученко К.С. Становление и развитие Московской городской телефонной сети: 1882-2005 годы: Автореф. дисс... канд. ист. наук. - Москва, 2005; Петров И.М. Добыча и обогащение руд цветных металлов в российской империи в начале XX века. // Московский государственный горный университет, ООО «Инфолайн», № 8, 2006. - С.374-380; Абезгауз С.А. Торговая политика России и ее европейские партнеры конца XIX - начала XX в. (о взаимном влиянии политических и торговых отношений): Дисс... канд. ист. наук. - Санкт-Петербург, 2008; Гранков Л.М. Морской торговый флот и внешнеторговая политика России. XVIII - первая половина XX вв.: Автореф. дисс... канд. ист. наук. - Москва, 2009; Поплетева Г.А. Государственная политика регулирования нефтяной промышленности России в последней трети XIX - начале XX вв.: Автореф. дисс... канд. ист. наук. - Москва, 2009; Баев О.В. Европейские рынки капиталов и трансформация внешнего долга Российской империи в конце 80-х - начале 90-х гг. XIX в. // Вестник КемГУ, №2 (54), 2013. -С.11-16; Иванов К.Е. Внешнеэкономические связи Российской империи в конце XIX - начале XX в.// Экономика и управление. №11 (121), 2015. - С.70-76; Степанов В.Л. Нефтяная политика С.Ю. Витте в Закавказье (1892-1903 гг.) // ВТЭ. №2, 2018, - С. 136-145; Рукосуев Е.Ю., Курлаев Е.А., Шумкин Г.Н. Горнозаводская промышленность Урала в XVIII - начале XX века: Благородные металлы. - Екатеринбург: УрО РАН, 2020. Чистяков Ю.Ф. Сельскохозяйственный экспорт России в XIX - начале XX вв. // Современная научная мысль. 2021. №6. - С.43-55;

Xorijiy mamlakatlar, jumladan, Buyuk Britaniya va AQSH sarmoyalarining kirib kelishi Rossiya sanoatining rivojlanishiga ta'siri hamda ushbu jarayonga iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va uning o'sish sur'atlarini tezlashtirishga qaratilgan siyosatning muhim jabhasi sifatida qarashlar N.N.Voznesenskaya, L.V.Vasilyeva, V.N.Kostornichenko, Z.I.Sechoeva, S.N.Kovalev kabi mualliflarda mavjud⁹.

Shuningdek, qator tadqiqotlarda XIX asrning oxirgi choragi – XX asr boshida Rossiyaning bevosita Buyuk Britaniya va AQSH bilan iqtisodiy aloqalarining tarixiy zamini va turli qirralarini nafaqat davlatlararo raqobat yoki qarama-qarshilik, balki o'zaro manfaatdorlik tamoyillari negizida yoritishga intilishni¹⁰ uchratish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, R.Truptil, J.Filips, G.Kuin, P.Kotrell, U.Kirchner, O.Krisp, F.Karstensen, I.Stoun, P.Megi, A.Tomson, A.Gregg, S.Nefziger kabi yevropalik va amerikalik tadqiqotchilar tomonidan nashr etilgan ilmiy adabiyotlarda¹¹ dissertatsiya mavzusiga oid ayrim masalalar o'rganilgan. Xorijlik mualliflarning tadqiqotlarida Buyuk Britaniya va AQSH moliya bozorlari hamda sanoatining rivojlanishi, chet ellarga sarmoyalarni eksport qilish va u yerlarda ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, tashqi savdosini kengaytirish jarayonlariga Rossiyaning ma'lum darajada aloqadorligi to'g'risida ma'lumotlar va tahlillar keltirilgan.

⁹ Вознесенская Н.Н. Иностранные инвестиции: Россия и мировой опыт. - Москва: Юрид. фирма "Контракт": ИНФРА-М, 2002; Васильева Л.В. Участие иностранного капитала в экономике Российской империи и его влияние на торгово-промышленное развитие Западно - Сибирского региона в конце XIX - начале XX вв. // Налоги. Инвестиции. Капитал. 2004, №3-4. - С. 34-42; Косторниченко В.Н. Иностранный капитал в нефтяной промышленности дореволюционной России: к разработке периодизации процесса // Экономическая история. Обзорение / Под ред. Л.И.Бородкина. Вып. 10. М., 2005. - С.46-67; Цечоева З.И. Исторический опыт привлечения иностранного капитала в российскую экономику в период 1861-1913 гг.: Автореф. дисс... канд. ист. наук. - Москва, 2012; Ковалев С.Н. Иностранные инвестиции в экономике дореволюционной России // История. Историки. Источники. № 4, 2017. - С.14-22.

¹⁰ Селезнёв Ф.А. Конфликт вокруг расторжения русско-американского торгового договора и московская буржуазия (1911-1912 гг.) // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. Серия: История. №1, 2002. - С.74-82; Васильева С.А. Англо-русские экономические отношения в условиях континентальной блокады 1806-1812 гг.: Автореф. дисс... канд. ист. наук. - Владимир. 2006; Курилла И.И. Заокеанские партнеры: Америка и Россия в 1830-1850-е гг. - Волгоград: Изд-во ВолГУ, 2005; Сергеев В.В. Роль торгово-экономических факторов в англо-русских отношениях второй половины XIX - начала XX века. // Вестник БФУ им. И.Канта. Гуманитарные и общественные науки. 2012. Выпуск №12. - С.35-39; Беляков Д.А. Русско-американские отношения в середине XIX века // Мировая политика., 2015. № 4. - С.103-114; Степанова Е.Е. Формально-юридический анализ Трактата «О торговле и мореплавании», заключенного между Российским государством и Соединенными Штатами Америки 6 (18 декабря) 1832 года // Вестник Восточно - Сибирского института МВД России, №1 (92) 2020. - С. 20-28.

¹¹ Truptil R.J. British banks and the London money market. - London: Jonathan Cape Ltd., 1936; Philips J.D. Salem Opens American Trade with Russia. // The New England Quarterly. Vol. XIV, № 4, Dec. 1941. - P.685-689; Queen G.S. The McCormick Harvesting Machine Corporation in Russia // Russian Review. 1964. April. Vol. 23. - P.164-181; Cottrell P.L. British Overseas Investment in the Nineteenth Century. - London: Macmillan Company and Economic History Society, 1975; Kirchner W. Studies in Russian-American commerce 1820-1860. - Leiden: E.J. Brill, 1975; Crisp O. Studies in the Russian Economy Before 1914. - London: Palgrave Macmillan, 1976; Rieber A.J. Merchants and Entrepreneurs in Imperial Russia. - Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1982; Carstensen F. American Enterprise in Foreign Markets. Studies of Singer and International Harvester in Imperial Russia. -Chapel Hill, - London: University of North Carolina Press, 1984; Stone I. The Global Export of Capital from Great Britain, 1865-1914: A Statistical Survey. - London, - New York.: St Martin's Press, 1999; Magee G. B., Thompson A.S. Empire and Globalization Networks of People, Goods and Capital in the British World, c.1850-1914. - Cambridge University Press. 2010; Gregg A., Nafziger S. Capital structure and corporate performance in late Imperial Russia // European Review of Economic History, №23, 2018. - P.446-481.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari muvofiq tarzda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XIX asrning oxirgi choragi - XX asr boshida Rossiyaning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonlarini Buyuk Britaniya va AQSH misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Rossiyaning xorijiy mamlakatlar, jumladan, Buyuk Britaniya va AQSH bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning tarixiy zamini, shart-sharoitlarini ochib berish;

XIX asrning oxirgi choragi – XX asr boshida Rossiyaning Buyuk Britaniya va AQSH bilan iqtisodiy aloqalarining umumiy holatiga ta'sir qilgan ichki va tashqi omillarni ko'rsatib berish;

tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishning qonunchilik-huquqiy bazasi, shuningdek, ularni tashkil qilish va boshqarish tizimini shakllantirishning tarixiy evolyutsiyasini tahlil qilish;

XIX asrning oxirgi choragi – XX asr boshida Rossiya tashqi iqtisodiy aloqalari infratuzilmasining asosiy komponentlari va moliyaviy jihatlarini rivojlantirishda Buyuk Britaniya va AQSHning ishtiroki masalalarini yoritib berish;

statistik ma'lumotlar asosida Rossiya imperiyasining Buyuk Britaniya va AQSH bilan savdo aloqalarining tavsifiy xususiyatlari va tarixiy dinamikasini tadqiq qilish;

Rossiya iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida Buyuk Britaniya va AQSH sarmoyalarning ishtirokini yoritib berish;

ilmiy xulosalarga tayangan holda tadqiq qilingan mavzuga mos keladigan sohalarning O'zbekiston sharoitlarida yanada rivojlanishiga xizmat qiluvchi aniq taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida XIX asrning oxirgi choragi - XX asr boshida Rossiyaning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni tashkil qilish va amalga oshirish tarixi belgilangan.

Tadqiqotning predmetini o'rganilayotgan davrda Rossiya imperiyasining tashqi iqtisodiy aloqalari tizimini rivojlantirishda Buyuk Britaniya va AQSHning ishtiroki tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiylik va obyektivlik tamoyillariga asoslanib, quyidagi usullardan foydalanildi: muammoli-xronologik, strukturali, tizimli va qiyosiy tahlil va boshqalar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Buyuk Britaniya va AQSH bilan iqtisodiy aloqalarni tashkil qilish va amalga oshirish jarayonlariga oid huquqiy bazasida qabul qilingan "Rossiyada doimiy yoki vaqtincha bo'lgan xorijliklarning yangi huquqlari to'g'risida"gi farmon, "Tijorat nizomi", "Savdo va dengizda kemalar qatnovi to'g'risida"gi shartnomalar xorijiy fuqarolar va turli millat vakillarining Rossiyadagi iqtisodiy faoliyati, savdoni

amalgam oshirish, moliyalashtirish, iqtisodiyotni tashqaridan kreditlash hamda xoriliy sarmoyalarni jalb etish kabi masalalarni tartibga solganligi isbotlangan;

tashqi iqtisodiy aloqalarni tashkil qilish va boshqarish tizimi, shuningdek, tadbirkorlik vakillik institutlarining bosqichma-bosqich shakllanishi Rossiya davlatchiligining umumiy tarixiy rivojlanishini belgilab bergan proteksionizm va iqtisodiyotni liberallashtirish qarashlari o'rtasidagi qarama-qarshilik tendensiyasiga mos kelganligi dalillangan;

Rossiya hukumati qimmatbaho qog'ozlarini G'arb moliya bozorlarida ilgari surishga alohida e'tibor qaratgani, Britaniya va AQSHda yirik davlat zayomlarini joylashtirishga urinishlar siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlar sababli muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga qaramasdan, savdo sohasini moliyalashtirishda britaniyaliklar, Rossiya moliya bozorida sug'urtalash tizimini rivojlantirishda esa amerikaliklar faol ishtirok etganligi ochib berilgan;

britaniyalik va amerikalik tadbirkorlarning Rossiya iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyalari, asosan, sanoatning ustuvor tarmoqlarida, ilg'or texnikalar va tayyor sanoat maxsulotlari importida mujassam bo'lganligi hamda ular tashqi iqtisodiy aloqalar doirasidagi dengiz savdosi, kommunikatsiyalar va tijorat infratuzilmalarini rivojlantirishda ishtirok etganligi aniqlangan;

Rossiya-Buyuk Britaniya va Rossiya-AQSH iqtisodiy aloqalarida bir-biridan hajmi, yo'nalishlari va tavsifiy xususiyatlari bo'yicha farqlar bo'lishiga qaramay, umumiy holat to'liqsimon xarakterdagi o'sish tendensiyasini namoyon etganligi bilan izohlanishi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijalaridan O'zbekiston Respublikasi davlat muzeylari fondlarini mustamlaka davrida Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan hududlarga xorijiy sarmoyalarning kirib kelishiga oid yangi ma'lumotlar bilan boyitishda foydalanilgan;

XIX asrning oxirgi choragi - XX asr boshida Buyuk Britaniya va AQSH misolida Rossiyaning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalari tarixini o'rganishga yangi ilmiy qarashlar va yondashuvlarni har tomonlama tahlil qilish zaruriy xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Dissertatsiyada Rossiya imperiyasi tashqi siyosati arxivining 133-fond – Tashqi ishlar vazirligi devonxonasi, Rossiya davlat tarix arxivining 13-fond – Tijorat vazirligi departamenti, 20-fond – Moliya vazirligi Savdo va manufakturalar departamenti, 560-fond – Moliya vazirining umumiy devonxonasi, 583-fond – Moliya vazirligining kredit qismi bo'yicha maxsus devonxonasi, 626-fond – Petrograd (Peterburg) xalqaro tijorat banki, 1260-fond – Davlat kengashi huzuridagi qonunlarni tuzish komissiyasi, Qadimgi hujjatlar Rossiya davlat arxividagi 19-fond – Moliya - (to'plam) Rossiya imperiyasi davlat arxivi, Moskva viloyati markaziy davlat arxividagi 888-fond – O'rim-yig'im mashinalari xalqaro kompaniyasining Lyuberski zavodi fondi, 1299-fond – “Zinger va Kompaniya” aksiyadorlik jamiyatining Podolsk zavodi fondi hamda O'zbekiston Milliy arxivining Rossiya imperiyasi davriga oid fondlarida mavjud bo'lgan materiallar, ilmiy adabiyotlar va esdaliklardan keng

foydalanilgani, ularning aksariyati birlamchi manbalarga tayanilganligi, hozirda tarix fanida tan olinayotgan yondashuv va usullarning qo'llanilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati Rossiyaning xorijiy mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya va AQSH bilan iqtisodiy aloqalarni tashkil qilish va amalga oshirish davomida ro'y bergan tarixiy voqealar va jarayonlarning mohiyatini, ularning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rnini tushinishga qaratilgan yondashuvlar va usullarni takomillashtirish asosida mazkur muammoga oid nazariy xulosalarni mukammallashtirish imkoniyatidadir.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mazkur dissertatsiya ishi mavzuga yaqin yo'nalishlar bo'yicha istiqboldagi tadqiqotlarni olib borish hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimining ta'lim muassasalari uchun Jahon tarixidan darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, multimedia komplekslarini yaratish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Rossiya XIX asrning oxirgi choragi - XX asr boshida: xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni tashkil qilish va amalga oshirishning tarixiy tajribasiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

Buyuk Britaniya va AQSH bilan iqtisodiy aloqalarni tashkil qilish va amalga oshirish jarayonlariga oid huquqiy bazasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda davlatlararo shartnomalar xorijiy fuqarolar va turli millat vakillarining Rossiyadagi iqtisodiy faoliyati, savdoni amalga oshirish, moliyalashtirish, iqtisodiyotni tashqaridan kreditlash hamda xorijiy sarmoyalarni jalb etish kabi masalalarni tartibga solganligiga oid ilmiy natijalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rejasi asosida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy-texnik institutida nashr etilgan "Jahon tarixi" nomli darslikda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-son guvohnomasi). Natijalar rus davlatining xorijiy davlatlar bilan tashqi aloqalarini o'rganish, shuningdek, jahon tarixining Rossiya imperiyasi mavjud bo'lgan davri bo'yicha qarashlarni boyitish va ilmiy xulosalarni kengaytirish imkonini bergan;

tadqiq qilingan davrda tashqi iqtisodiy aloqalarni tashkil qilish va boshqarish tizimi, shuningdek, tadbirkorlik vakillik institutlarining shakllanishi Rossiya davlatchiligining umumiy tarixiy rivojlanishini belgilab bergan proteksionizm va iqtisodiyotni liberallashtirish qarashlari o'rtasidagi qarama-qarshilik tendensiyasiga mos kelganligiga doir natijalardan O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar davlat muzeyidagi ekspozitsiyalarni shakllantirishda va 2021-2023-yillarda bajarilgan "O'zbek harbiy san'ati tarixi" mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2023-yil 20-yanvardagi 10/135-son ma'lumotnomasi). Natijalar muzey ekspozitsiyalarini boyitishga va XIX asrning oxirgi choragi - XX asr boshida Rossiyaning xorijiy mamlakatlar bilan

iqtisodiy aloqalari tizimini barpo etish tarixi haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

Rossiya hukumati qimmatbaho qog'ozlarini G'arb moliya bozorlarida ilgari surishga alohida e'tibor qaratgan bo'lsada, Britaniya va AQSHda yirik davlat zayomlarini joylashtirishga urinishlar muvaffaqiyatsizlikka uchrasada, savdo sohasini moliyalashtirishda britaniyaliklar, Rossiya moliya bozorida sug'urtalash tizimini rivojlantirishda esa amerikaliklar faol ishtirok etganligiga doir natijalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqlari qo'mitasining xorijiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy seminar va davra suhbatlarini tashkil qilishda hamda yo'l xaritalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqlari qo'mitasining 2023-yil 1-fevraldagi 14-07-97-son ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi o'tkazilgan ilmiy seminar va davra suhbatlarining amaliy ahamiyatini oshirishga imkon bergan;

britaniyalik va amerikalik tadbirkorlarning Rossiya iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyalari, asosan, sanoatning ustuvor tarmoqlarida, ilg'or texnikalar va tayyor sanoat maxsulotlari importida mujassam bo'lganligi hamda ular tashqi iqtisodiy aloqalar doirasidagi savdo, kommunikatsiyalar va tijorat infratuzilmalarini rivojlantirishda ishtirok etganligiga oid natijalardan O'zMU qoshidagi AL 442105887 "Raqamli arxiv: O'zbekiston Milliy arxivi fondlarining onlayn yo'lko'rsatgichini yaratish" nomli amaliy grant doirasida foydalanilgan (O'zMUning 2023-yil 3-martdagi 04/11-1217-son ma'lumotnomasi). Tadqiq qilingan davrda Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan Turkiston o'lkasi hududlarida xorijiy sarmoyadorlar tomonidan amalga oshirilgan loyihalar va tashkil qilingan korxonalar to'g'risida O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan fondlar haqidagi ma'lumotlar hamda muallifning ilmiy xulosa va takliflari amaliy grant bo'yicha rejalashtirilgan ishlarni samarali bajarishga yordam bergan;

bundan tashqari, Rossiya-Buyuk Britaniya va Rossiya-AQSH iqtisodiy aloqalari bir-biridan hajmi, yo'nalishlari va tavsifiy xususiyatlari bo'yicha farqlar bo'lishiga qaramay, umumiy holat to'liqinsimon xarakterdagi o'sish tendensiyasini namoyon etgani statistik ma'lumotlarni tahlil qilish negizida va birlamchi hujjatlarning ilmiy iste'molga jalb etish orqali ochib berilganligi bilan bog'liq natijalardan Xalqaro "OLTIN MEROS" xayriya jamoat fondining xorijiy mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan yillik dasturlarini amalga oshirishda foydalanilgan (Xalqaro "OLTIN MEROS" xayriya jamoat fondining 2023-yil 8-fevraldagi 01-11-08/02-23-son ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi jamoat fondi xodimlarining xalqaro iqtisodiy aloqalar bo'yicha ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 3ta xalqaro konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24ta ilmiy ish chop etilgan. Shular qatorida 1ta monografiya, 13ta maqola

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shuningdek 3tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot hajmi 226 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslab berilgan, o‘rganilish darajasi tavsiflangan, tadqiqot ishining maqsad va vazifalari belgilangan, ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ilmiy ish natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

“Rossiya imperiyasi tashqi iqtisodiy aloqalari huquqiy va institutsional asoslarining tarixiy evolyutsiyasi” deb nomlangan birinchi bobda asosiy e‘tibor Rossiya tashqi iqtisodiy aloqalarining qonunchilik-huquqiy bazasini barpo etish, ularni tashqil qilish va boshqarish tizimini shakllantirish masalalarini atroflicha yoritishga qaratilgan.

Shubhasiz, o‘rganilayotgan davrda Rossiyaning xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarini tashkil qilish va rivojlantirish uchun qonunchilik-huquqiy bazani shakllantirish jarayoni juda muhim rol o‘ynadi. Shu bilan birga, ta‘kidlash joizki, mazkur baza chuqur tarixiy ildizlarga egadir. Biroq, Rossiyada tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida alohida ixtisoslashtirilgan qonunchilik mavjud emasdi. Shu bilan birga, turli tarixiy davrlarda qabul qilingan Rossiya davlatining huquqiy hujjatlarida tadbirkorlik faoliyatining muayyan jihatlarini tartibga soluvchi, u yoki bu darajada xorijiy davlatlar va fuqarolar bilan bog‘liq bo‘lgan alohida qoidalar, boblar va bandlar mavjuddir.

Krepostnoy huquqi tugatilgunga qadar xorijliklar Rossiya imperiyasining ulkan hududlarida erkin savdo va sanoat bilan shug‘ullana olmasdilar. Qonun ularni fuqarolik holatining maxsus shakli bo‘lgan “xorijlik mehmonlar” sifatida ro‘yxatdan o‘tkazishni talab qilardi, uni qo‘lga kiritgandan so‘ng, potensial tadbirkor nihoyat tijorat faoliyatini amalga oshirish huquqini qo‘lga kiritardi.

Rossiyada o‘sha paytda mavjud bo‘lgan qoidaga ko‘ra, xorijlik fuqarolar har bir alohida holatda imperatorning maxsus ruxsati bilan savdo va sanoat bilan shug‘ullanish huquqini qo‘lga kiritgan. Bu holat faqat xorijda “mashhur sarmoyador yoki mohir hunarmand” sifatida tanilganlar uchun istisno qilingan. “Manufakturalar, fabrikalar va zavodlar” ochish va ularga xizmat ko‘rsatish huquqi, odatda, faqat savdogarlar gildiyalarida ro‘yxatdan o‘tgan Rossiya fuqarolariga berilgan.

Shuni ta‘kidlash kerakki, chet el fuqarosi ruxsatnoma olgandan keyin ham to‘liq harakat erkinligiga ega bo‘lmagan, hukumat uni diqqat bilan kuzatib borgan. Biroq, qisqa vaqt o‘tgach, rossiyalik va xorijiy tadbirkorlarning teng huquqliligi tamoyilini e‘lon qiluvchi qonunlar qabul qilindi. Jumladan, imperator Aleksandr II

ning 1860-yil 7-iyundagi “Rossiyada doimiy yoki vaqtincha bo‘lgan xorijliklarning yangi huquqlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinishi bilan tadbirkorlik faoliyati sohasida xorijiy fuqarolar faktik jihatdan Rossiya fuqarolari bilan tenglashtirildi¹². Ta’kidlash lozimki, xorijiy fuqarolarning tadbirkorlik huquqlari to‘g‘risidagi umumiy ichki qonunchilik bir qator hollarda Rossiya tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalarda mustahkamlangan xorijliklarning huquqlari to‘g‘risidagi qoidalarga zid kelardi¹³.

1880-yillarda hukumat tadbirkorlik faoliyati asoslarini shakllantirgan bir qator qonunlarni qayta ko‘rib chiqdi. 1885-yilda “Tijorat va boshqa kasb-korlik huquqi uchun bojlar to‘g‘risidagi Nizom”ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

1887-yilga kelib, “eski tijorat qonunlari to‘plamining mazmuni tubdan o‘zgartirildi”. Bu qonunlarning barchasi ajnabiy tadbirkorning o‘zgargan huquqiy maqomini aks ettirdi. Rossiya fuqarolarini xorijliklar bilan tenglashtirish to‘g‘risidagi umumiy qoidadan istisno sifatida faqat “amalga oshirilishi rasmiy xususiyatga ega bo‘lgan yoki mamlakatning siyosiy manfaatlarini himoya qilish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan; shuningdek, iqtisodiy va madaniy sabablarga binoan...” savdoning ayrim tarmoqlari belgilangandi.

Tadbirkorlikni huquqiy tartibga solish bir necha yo‘nalishda amalga oshirildi. Rossiya imperiyasi iqtisodiy qonunchiligining asosiy manbalari Rossiya temir yo‘llari Umumiy nizomi (1885-y.), Tijorat nizomi (1887-y.), Tijorat sudi ishlarini yuritish va Veksellar to‘g‘risidagi nizomlar (1862, 1902-yy.), Sanoat to‘g‘risidagi nizom (1892-y.), Tog‘-kon nizomi (1893-y.), Fuqarolik qonunlari to‘plami, Bevosita soliqlar to‘g‘risidagi Nizom, Kredit nizomi edi. Ushbu nizomlarning aksariyati keyingi yillarda qayta nashr etilgandi.

Tijorat bilan bir qatorda, XIX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida zavod qonunchiligi ham sezilarli darajada o‘zgarib, 1892-yilda Sanoat to‘g‘risidagi yangi nizomning qabul qilinishi bilan yakunlandi.

Rossiya qonunchiligi xorijliklarga tadbirkorlikni tashkil etish shakllarini tanlashda to‘siqlar qo‘ymasdi, aralash aksiyadorlik kompaniyalari va shirkatlarni shakllantirish va faoliyat yuritish imkonini berdi.

Rossiyada ko‘rib chiqilayotgan sohani qonunchilik bilan tartibga solish davlat manfaatlarini izchil himoya qilish va rossiyalik tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash bilan ajralib turdi. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlariga cheklovlar qo‘yish orqali hukumat Rossiya biznesining rivojlanishiga katta e’tibor qaratdi.

Rossiyaning xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalari sohasi mamlakat iqtisodiy hayotining ko‘plab yo‘nalishlarini qamrab oldi. Xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni tashkil qilish va boshqarish masalalari bilan XVII asrda Elchilik prikazi shug‘ullangan. Ajnabiylar va ularning Rossiyada bo‘lishi bilan bog‘liq barcha masalalar ushbu mahkama tasarrufida bo‘lgan. XVIII asrda esa Sankt-Peterburgda joylashgan Kommers-kollegiyaning tuzilishi masalasi kengroq

¹² Головина И.А. Правовое регулирование иностранных инвестиций в нефтяную промышленность в дореволюционный период // Труды Института государства и права Российской академии наук № 4, 2012. - С.129.

¹³ Смирнов С.А. Правовое регулирование иностранного предпринимательства в России во второй половине 19-начале 20 веков: Дисс... канд. юр. наук. - Волгоград, 2002. - С.34.

asosga o'tdi va faoliyati tashqi savdoga yo'naltirildi.

1800-yilda Tijorat vazirligining o'zi tuzilmasdan, faqat savdo vaziri lavozimi joriy qilingan bo'lsa¹⁴, 1802-yil 8-sentyabrda esa Aleksandr I "Vazirliklar ta'sis qilish to'g'risida"gi manifestga imzo chekib, sakkizta vazirlik, jumladan, Tijorat vazirligi tuzilganligini e'lon qildi. Ushbu vazirlikda ish yuritish "kollegial tartib asosida" saqlanib qolindi¹⁵. Rossiyada ayniqsa muhim institutsional o'zgarishlar XIX asr 60-70-yillar islohotlari yillarida va undan keyingi davrda yuz berdi.

1864-yil 26-oktyabrda imperator farmoni bilan barcha savdo masalalarini Moliya vazirligining bir departamentida jamlash to'g'risidagi Davlat kengashi mulohazasi tasdiqlandi. Shu munosabat bilan Tashqi savdo departamentidan Manufakturalar va ichki savdo departamentiga Tashqi savdo aloqalari bo'limi o'tkazildi. Xuddi shu farmon bilan Tashqi savdo departamenti nomi Bojxona yig'implari departamenti deb o'zgartirildi, Manufakturalar va ichki savdo departamenti esa Savdo va manufakturalar departamenti deb nomlandi¹⁶. O'zgarishlar bir vaqtning o'zida savdo-iqtisodiy va moliyaviy boshqaruvning aksariyat tuzilmalariga taalluqli edi. Moliya vazirligi tuzilmalari jiddiy tarzda yangilandi. Savdo va manufakturalar departamentining ekspertlik vazifalariga ega hamda savdo-sanoat qatlamlari manfaatlarini ifodalovchi Manufakturalar va tijorat kengashlari sezilarli o'zgarishlarga duch keldi.

Tadqiq qilingan davrda Manufakturalar kengashining Moskva bo'limi o'zini juda faollashtirdi, birja qo'mitalari paydo bo'ldi va muvaffaqiyatli ish olib bordi. Aynan ularning birlashishi natijasida Moliya vazirligining Savdo va manufakturalar kengashini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qildi¹⁷.

XIX asr 80-yillari - 90-yillarning boshida Rossiya imperiyasining boshqaruv tizimida Moliya vazirligining ta'siri kuchaydi. Ushbu davrning asosiy mazmuni vazirlik funksiyalarini jiddiy kengayishi, uni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi, iqtisodiyotning umumiy yuksalishi, mamlakat byudjet xo'jaligining kengayishi, sanoat modernizatsiyasining boshlanishi bilan bog'liq bo'ldi¹⁸.

1905-yil 27-oktyabrdagi farmon bilan Savdo va sanoat vazirligi tashkil etildi. Moliya vazirligidan uning tarkibiga quyidagilar o'tkazildi: savdo-sanoat va tog'-kon sanoati ishlari bo'yicha muassasalar, tarif masalalari bo'yicha kengash, tarif qo'mitasi va temir yo'l ishlari departamenti. Yangi vazirlik tarkibiga Dengizda savdo kemalari qatnovi va portlar bosh boshqarmasi ham kirdi. Savdogarlar jamiyatlari, savdogarlar va hunarmandlar mahkamalari bilan bog'liq barcha ishlar Ichki ishlar vazirligidan yangi vazirlikka o'tkazildi.

"XIX asrning oxirgi choragi - XX asr boshida Rossiyaning Buyuk Britaniya va AQSH bilan iqtisodiy aloqalarini tashkil qilish va

¹⁴ РДТА, 1329-фонд, 1-рўйхат, 24-иш, 66-варақ.

¹⁵ РДТА, 13-фонд, 2-рўйхат. 804-иш, 19-варақ.

¹⁶ Систематический каталог делам Департамента внешней торговли, хранящимся в Архиве Департамента таможенных сборов / Сост. нач. Арх. Деп. тамож. сборов Н. Кайданов. - Санкт-Петербург: тип. В. Киришбаума, 1877. - С.4-5.

¹⁷ Разманова Н.А. Институциональные преобразования системы управления финансами в пореформенной России. // Гуманитарные науки. №3,2011. - С.66.

¹⁸ Соловьев Я.В. Министерство финансов Российской империи в 1858-1903 гг.: организация и функционирование: Автореф. дисс... канд. ист. наук. - Москва, 2003. - С.22,23.

moliyalashtirish masalalari” deb nomlangan ikkinchi bobda davlatlararo iqtisodiy aloqalar infratuzilmasining asosiy komponentlari tahlil qilingan hamda Rossiya tashqi iqtisodiy aloqalarining moliyaviy jihatlari va ularda Buyuk Britaniya va AQSHning ishtiroki atroflicha ko‘rib chiqilgan.

Rossiyaning xorijiy mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya va AQSH bilan iqtisodiy aloqalarining umumiy holatiga jismoniy va tijorat infratuzilmasi asosiy komponentlarining rivojlanish darajasi katta ta’sir ko‘rsatdi.

Tashqi savdoni amalga oshirish uchun transport tizimlari muhim rol o‘ynadi. Tadqiq qilinayotgan davrning o‘zgargan tarixiy sharoitida Rossiya iqtisodiyotining rivojlanishida savdo flotining roli oshdi. Biroq, Rossiya savdo floti G‘arbiy Yevropa davlatlari flotlaridan orqada qolishda davom etdi. O‘zining rivojlanish darajasiga ko‘ra, Rossiya savdo floti kemasozligi iqtisodiyotning tobora ortib borayotgan ehtiyojlarini qondira olmasdi.

Rossiya tashqi savdo aylanmasining asosiy hajmi, jumladan, Buyuk Britaniya va AQSH bilan, dengiz transporti orqali amalga oshirildi. Chet el kemalari ruslarga tegishli yuklarning sezilarli qismini dengiz orqali tashib berdi.

O‘rganilgan davrda ixtisoslashgan, ko‘pincha britaniyaliklarga tegishli, kema qatnovi kompaniyalari rivojlandiki, ular Rossiyaning tashqi savdo yo‘llarida ustunlik qildi. Jumladan, Boltiq dengizidagi ko‘plab shunga o‘xshash kompaniyalar orasida quyidagilar mavjud edi: “Beyli va Litem» (Bailey & Leatham), “K.Norvud va K” (C.Norwood & C°), “Braun, Atkinson va K” (Brown, Atkinson & C°) va ayniqsa «T. Uilson va o‘g‘illari» (T. Wilson & Sons)¹⁹.

Vaqt o‘tishi bilan Rossiya savdo flotini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hajmi oshib bordi. Biroq, bu rus kemalarida tashiladigan eksport-import tovarlari ulushini sezilarli darajada oshirish uchun yetarli emasdi.

Buyuk Britaniya savdo flotining Rossiya dengiz kemachiligidagi ishtiroki eng ahamiyatli bo‘ldi. Xususan, agar 1905-yilda 2.703 britan kemasi 319.631 ming pudga teng yukni Rossiyadan olib chiqqan bo‘lsa, 1910 yilda esa bu ko‘rsatkichlar 2.801 kema va 491.860 ming pudni tashkil qildi²⁰.

Rossiyaning dengiz orqali amalga oshiriladigan umumiy tashqi savdosida AQSH bayrog‘i ostida qatnaydigan savdo kemalarining ishtiroki sezilarli darajada bo‘lmadi. Masalan, “Rossiya tashqi savdosi sharhida...” aytilishicha, 1880-yilda AQSHdan umumiy sig‘imi 3.164 tonna bo‘lgan 6 ta kema Yevropa chegarasidagi Rossiya portlariga kelgan (taqqoslash uchun, Britaniyaning umumiy sig‘imi 996.947 tonnadan iborat 2.660 kemasi yetib kelgan)²¹.

Rossiya portlarining jihozlanish darajasi xalqaro dengiz savdosi talablariga to‘liq javob bermagan. Qulay tabiiy bandargohlarning yetishmasligi, port inshootlariga sarmoyalarning kerakli darajada kiritilmaganligi yirik va tejamkor bug‘ flotdan foydalanishni qiyinlashtirdi.

¹⁹ Томпстон С.Р. Российская внешняя торговля XIX - начала XX в.: организация и финансирование. / пер. с англ. Ю.А. Петрова. -Москва: РОССПЭН, 2008. - С.79.

²⁰ Статистический ежегодник на 1912 г. / Под ред. В.И.Шараго, - Санкт-Петербург: Тип. «Экономия»,1912. Часть III. - С.124-127.

²¹ Обзор внешней торговли России по европейской и азиатской границам за 1880 год. - Санкт-Петербург: Тип. В. Киришбаума, 1881. - С.540.

Rossiya portlarining sayozligi fraxt yig'imiga (ya'ni, yuk tashish haqiga) juda salbiy ta'sir ko'rsatdiki, u, o'z navbatida, yetakchi davlatlar portlariga qaraganda yuqori bo'ldi. Jumladan, bir pud bug'doyni Odessadan Londonga tashish uchun rus eksportchisi 1905 yilda o'rtacha 6,02 tiyin, Odessadan Liverpulga esa 5,49 tiyin to'lardi. Shu paytning o'zida, Nyu-Yorkdan London va Liverpulga yuk tashish haqi o'rtacha 4,8 va 3,6 tiyinni tashkil etdi²². London bozori bilan bog'liq bo'lgan Rossiyaning Boltiq va Qora dengiz portlarida kema agentlari va maklerlari sonining o'sishi ko'zga tashlandi.

Qora dengiz portlarida eng muvaffaqiyatli yuk tashish agenti va brokeri bo'lgan "Makneb, Rujye va K^o" firmasi 1881-yilda Odessada tashkil etildi, London bozorida uning manfaatlariga birinchi bo'lib "Best, Rili va K^o" vakillik qildi, 1891-yilda esa Londondagi Boltiq birjasi bilan bog'liq bo'lgan o'z filialini ochdi. O'sha paytda kema fraxti (yuk tashish uchun kema yollash) an'anaviy ravishda rus eksporti bilan shug'ullangan ushbu birjada biznesning asosiy turi hisoblangan.

Tadqiq qilingan davrda aloqa va kommunikatsiyalar tizimida telegraf yozishmalari keng tarqaldi. Bu borada xalqaro savdo sohasi ham bundan mustasno emasdi. Rossiyaning alohida davlatlar bilan telegramma almashinuvida Germaniya katta farq bilan birinchi, Buyuk Britaniya – ikkinchi va Fransiya - uchinchi o'rinda turgan. AQSH Yevropa davlatlaridan orqada edi va hatto birinchi o'ntalikka ham kirmagan.

Rossiyaning xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda savdo palatalari va tadbirkorlar manfaatlarini ifodalovchi boshqa vakillik tashkilotlar muayyan rol o'ynadi. Rossiyada birinchi bo'lib 1908 yilda Peterburgda Rus-ingliz savdo palatasi tashkil etildi. Ushbu tashkilot a'zolari tarkibiga Rossiya va Britaniya ishbilarmon doiralari vakillari kirgandi.

1912-yil hisobotida aytilishicha, palata a'zolarining soni yildan-yilga ortib, 750 nafarga yetgan; ularning 500 dan ortig'i Rossiyada, qolgan 250 ta Buyuk Britaniya, uning mustamlakalari va boshqa xorijiy davlatlar o'rtasida taqsimlangan²³.

1913-yilda Sankt-Peterburg va Kiyevda o'z bo'limlariga ega Rossiya-Amerika palatasi Moskvada tashkil etildi. Ushbu palata Rossiya va AQSH o'rtasidagi savdo aloqalarini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun g'amxo'rlik qilishni rejalashtirgandi. Bundan tashqari, keyinchalik, 1915-yil 1-yanvarda palata "Rossiya-Amerika savdo palatasining xabarnomasi" oylik jurnalini chop qila boshladi²⁴.

Rossiyaning Buyuk Britaniya va AQSH bilan iqtisodiy aloqalari tarixiy evolyutsiyasining tabiati, ko'lami va dinamikasi moliyaviy sohada ham o'z aksini topdi.

Jahon xo'jaligi tizimida Rossiya sarmoyalarning yirik importchisi sifatida

²² Наши торговые порты / Промышленность и торговля. Том I. - Санкт-Петербург: Тип. Т-ва п. ф. «Электро-Типография Н.Я. Стойковой», 1910. - С.421

²³ Из деятельности общественных учреждений по промышленности и торговле. / Промышленность и торговля. Том XI. Январь-июнь 1913. - Санкт-Петербург: Электро-Типография Н.Я.Стойковой, 1913. - С.45

²⁴ Бородин Н.А. Северо - Американские соединенные штаты и Россия. - Петроград: Огни, 1915. - С.312.

namoyon bo'ldi. Xorijiy sarmoyalarning ssudalar shaklida oqib kelishi iqtisodiyotga kiritilgan bevosita chet el investitsiyalari hajmidan sezilarli darajada ko'proq edi. G'arbda Rossiya temir yo'l jamiyatlari obligatsiyalarini sotish keng tarqaldi. London, Amsterdam, Berlin va ayniqsa, Parij bankirlari asosiy qarz beruvchilar edi.

Rossiya iqtisodiyotiga kiritiladigan xorijiy sarmoyalar xayriya maqsadlarini ko'zlamagandi. Chet ellik sarmoyadorlar o'z jamg'armalari uchun eng yaxshi sarflash nuqtasini topdilar.

1897-yilda oltin standarti joriy etilgunga qadar hukumat zayomlari xorijiy investitsiyalarning asosiy manbai bo'lgan bo'lsa, keyinchalik xususiy zayomlar hajmi davlatnikidan oshib ketdi.

XIX asr 80-yillari oxiri - 90-yillar boshida davlat zayomlari konversiya qilinganidan keyin Buyuk Britaniya pul bozori Rossiyaning yirik davlat zayomlarini joylashtirishda deyarli ishtirok etmadi.

Rossiya Moliya vazirligi 1894-yildan keyin, ya'ni londonlik A.Rotshild Rossiya davlat zayomida oxirgi marta ishtirok etgan paytdan so'ng, London bozorida erisha olgani shu bo'ldiki, Rossiyaning 4%-li ichki rentasi 1898-yil iyun oyida Londonda kotirovkaga, ya'ni birjada muomalada bo'lishga qabul qilindi²⁵.

1899-yil iyunida Moliya vazirligi, nihoyat, Londondagi "Genri Shryoder va K^o" bankirlar xonadoni orqali Moskva-Vindavo-Ribinsk temir yo'l jamiyatining 2.975 ming f.st. miqdorida hukumat tomonidan kafolatlangan 4% obligatsiyali zayomni Buyuk Britaniyada joylashtirishga muvaffaq bo'ldi²⁶.

S.Yu.Vitte 1899-yil sentyabr-oktyabr oylarida Britaniya bozoriga hali ham Amerika bozoriga qaraganda ko'proq umid bog'lagandi. Biroq, bu umidlar ro'yobga chiqmadi. Keyinchalik, XX asr boshida ham Britaniya pul bozori Rossiyaga davlat zayomlarini joylashtirish uchun to'liq ochilmadi.

Rossiya hukumati o'z zayomlarini AQSHda ham joylashtirishga harakat qildi. Ammo bu urinishlar, kamdan-kam holatlardan tashqari, muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

1899-yil oktyabr oyida AQSHning eng yirik sug'urta kompaniyalaridan biri "Nyu-York layf inshurens kompani" ("New York Life Insurance C^o") 10 млн. doll. miqdorida 4%li rus zayomini sotish to'g'risida sindikat kelishuvini Peterburg xalqaro banki bilan tuzdi. Ushbu zayomdan tushadigan mablag'lar Janubi-Sharqiy va Vladikavkaz temir yo'llarini qurishga sarflanishi kerak edi. Moliyaviy nuqtai nazardan, 1899 yilgi temir yo'l zayomini muvaffaqiyat deb hisoblab bo'lmaydi.

Davlat zayomlaridan tashqari chet el sarmoyasi Rossiya tashqi savdosini moliyalashtirishda ham ishtirok etdiki, ushbu sohada Buyuk Britaniya yetakchi o'rinni egalladi. Rossiya tashqi savdosini moliyalashtirishda muhim rol o'ynagan London firmalari orasida quyidagilarni tilga olish lozim: «Aka-uka Beringlar» («Baring Bros. C^o Ltd.»), «Uilyam Brandt, o'g'illari va K^o» («Wm. Brandt, Sons & C^o») va «J. Genri Shryoder va K^o» («J.Henry Schroeder & C^o»), «A.Kleynvort

²⁵ Ананьич Б.В. Россия и международный капитал. 1897-1914: Очерки истории финансовых отношений. - Ленинград: Наука. Ленинградское отделение, 1970. - С.32

²⁶ РДТА, 583-фонд, 4-рўйхат, 312-иш, 80-81- варақлар.

va o'g'illari» («A.Kleinwort & Sons»).

1860-yillar boshida Britaniyaning Rossiya uchun aksept krediti yiliga taxminan 12 mln. funtni tashkil etdi. XX asr boshida taxminan 20 mln. funt sterling rus akseptlariga sarmoya sifatida kiritildi²⁷.

Amerika sug'urta kompaniyalarining Rossiyadagi faoliyatining dastlabki bosqichi XIX asrning 70-yillariga to'g'ri keldi. Nyu-Yorkning "Life saving society" va "New-York life insurance C^o" kompaniyalari amerikaliklarning Rossiya sug'urta biznesiga kirib kelishida birinchilar qatorida edi²⁸.

"Nyu-York" nomli Jamiyat 1885 yilda Rossiya hukumatidan rasmiy ruxsat oldi, 1890 yilda esa - "Ekvitebl" Jamiyati. 1880-yillar oxiridan 1914 yilgacha bo'lgan davr har ikkala jamiyatning rus bo'limlarida tizimli o'sish davri bo'ldi. "Nyu-York", "Ekvitebl" bilan solishtirganda, deyarli ikki barobar ko'p operatsiyalar hajmi, vakolatxonalarining zichroq tarmog'i va xizmat ko'rsatadigan banklarning kengroq doirasiga ega bo'ldi.

"Rossiyaning Buyuk Britaniya va AQSH bilan savdo aloqalarining tarixiy zamini, tavsifiy xususiyatlari va dinamikasi" deb nomlangan uchinchi bobda o'zaro savdo munosabatlarning ko'lami, xarakteri, rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari aniq ma'lumotlar negizida tahlil etilgan.

Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi savdo aloqalari bir necha asrlik tarixiy zaminga ega edi. Jumladan, podsho Ivan IV ning 1554-yildagi yorlig'i orqali ingliz savdogarlari Rossiyaga kirishga ruxsat oldilar va to'liq erkin savdo qilish huquqiga ega bo'ldilar. Londonda tashkil qilingan Moskva kompaniyasi bojsiz savdo qilish huquqidan 1649-yilgacha foydalandi. Rossiyada ingliz savdogarlariga berilgan imtiyozlardan mamnun bo'lgan qirolicha Mariya Angliyada rus "mehmonlari" uchun xuddi shunday imtiyozlarni taqdim etdi.

Pyotr I xorijda bo'lgan davrida Angliya bilan to'g'ridan-to'g'ri savdo aloqalarini o'rnatish uchun muhim qadamlar qo'ydi. Jumladan, podsho shaxsan o'zi 1698-yil 16-aprelda ingliz savdogarlari uchun Rossiyada tamaki sotish bo'yicha monopoliya o'rnatish to'g'risidagi shartnomani tuzdi.

1734-yilda Sankt-Peterburgda²⁹ imzolangan "Do'stlik va savdo traktati" rus-ingliz munosabatlari tarixidagi birinchi shunday hujjat bo'ldi va keyinchalik, ya'ni 1741 va 1742-yillarda qayta tuzildi. 1766-yilda esa ikki davlat o'rtasida yangi shartnoma tuzildi³⁰. XVIII asrning ikkinchi yarmida Buyuk Britaniya Rossiyaning G'arbiy Yevropadagi asosiy sherigi bo'lib qolaverdi.

Biroq, Rossiya-Britaniya savdosi shartlarining tengsizligi haqida alohida to'xtalish lozim. 1843-yilgacha amalda bo'lgan Navigatsiya aktiga muvofiq, ingliz portlarida rus kemalari tonnaj yig'imlarining yuqori foizini to'lashlari kerak edi. Bundan tashqari, rus kemalariga Angliyaga faqat bevosita Rossiyada ishlab chiqarilgan tovarlarni olib kirishga ruxsat berildi. Ruslar Buyuk Britaniya

²⁷ Томпстон С.Р. Российская внешняя торговля XIX - начала XX в. ... - С.169.

²⁸ РДТА, 626-фонд, 1-рўйхат, 1110-иш,1-варак.

²⁹ Мартенс Ф. Собрание трактатов и конвенций, заключенных Россией с иностранными державами. Том IX(X). №384. - Санкт-Петербург: Тип. Министерства путей сообщения, 1892. - С.62.

³⁰ Медведев Ю.С. Русско-английские отношения при Елизавете Петровне в неопубликованной монографии И.И. Любименко// Общество: философия, история, культура. Выпуск № 5 (61), 2019. - С.55-60. (http://dom-hors.ru/rus/files/arhiv_zhurnala/fik/2019/5/history/medvedev.pdf) дата обращения: 22.03.2022.

mustamlakalari bilan ham savdo qila olmasdilar.

1842-yil 30-dekabrda (1843-yil 11-yanvarda) Sankt-Peterburgda ikki davlat o'rtasida Tijorat shartnomasi³¹ imzolandi, bu esa savdoda mumkin qadar qulaylik berish tamoyiliga o'tishni belgilab berdi.

XIX asrning birinchi yarmida Buyuk Britaniya Rossiya bilan savdo-sotiqda ishonchli tarzda yetakchilik qildi: ingliz mollari eksporti o'rtacha 37%ni tashkil qildi, import esa - 29,2%ni³².

1858-yilda Buyuk Britaniya va Rossiya o'rtasida Savdo va dengizda kemalar qatnovi to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi tufayli savdo aloqalari yangi turtki oldi. Ushbu shartnoma ikkala tomonga yangi imtiyozlar taqdim qildi va keyingi yarim asr davomida ular o'rtasidagi barqaror savdo-iqtisodiy munosabatlarni saqlashga yordam berdi.

XIX asrning so'nggi choragi – XX asr boshida eksportning importdan oshib ketishi tufayli Rossiyaning tashqi savdodan oladigan daromadlarining o'sish tendensiyasi doimiy ravishda mavjud bo'ldi. Bu davrda Buyuk Britaniya Rossiyaning tashqi savdosida muhim o'rinni egalladi.

Jumladan, faqatgina 1880-yilda Buyuk Britaniyaga 30,5 mln. rublga teng miqdorda bug'doy, 6,7 mln. rublga - javdar, 5,6 mln. rublga - arpa, 18,9 mln. rublga - jo'xori, 3,3 mln. rublga esa makkajo'xori eksport qilindi³³.

“Rossiya tashqi savdosi sharhi...” ma'lumotlariga ko'ra, 1881-1891-yillarda Rossiya imperiyasining Buyuk Britaniyaga eksporti miqdorining o'rtacha ko'rsatkichlari 226,1 mln. rublga etdi, import esa 95 mln. rubldan oshmadi; 1892-1896-yillarda eksport 156,9 mln. rublgacha qisqardi, import esa 116,7 mln. rublgacha oshdi; 1897-yilda eksport va import ko'rsatkichlari mos ravishda 150,9 mln. rub. va 104, mln. rublni tashkil etdi³⁴.

Rossiya va Buyuk Britaniya savdo aloqalarning rivojlanishi, eng avvalo, har ikki davlatning manfaatlarini inobatga olib, jahon savdosida mavjud bo'lgan umumiy iqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi.

Rossiya-Britaniya savdo aloqalarining rivojlanishiga, albatta, ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatdi. Uzoq vaqt davomida Buyuk Britaniya Rossiyaning tashqi savdo hamkorlari bo'lgan mamlakatlar orasida yetakchi o'rinni egallab keldi.

XIX asr oxiridan boshlab Rossiyaning tashqi savdo aylanmasida Buyuk Britaniya ikkinchi o'rinni (Germaniyadan keyin) egalladi. Uzoq vaqt davomida Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi savdo aloqalari ma'lum darajada siyosiy ziddiyatlar tufayli sekinlashgandi. 1907-yilda imzolangan ta'sir doiralarini belgilash to'g'risidagi Angliya-Rossiya shartnomasi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga yordam berdi.

Buyuk Britaniya Rossiyadan yog'och, g'alla, tuxum, neft mahsulotlari, marganes rudasi, teri xomashyosi, olib kirgan va shu paytning o'zida asosan

³¹ Мартенс Ф. Собрание трактатов и конвенций Том XII. - Санкт-Петербург: Тип. А.Бенке. 1898. №451. - С.203.

³² Сергеев В.В. Роль торгово-экономических факторов в англо-русских отношениях второй половины XIX — начала XX века. // Вестник БФУ им. И. Канта. Гуманитарные и общественные науки. 2012. Выпуск №12. - С.36.

³³ Обзор внешней торговли.... за 1880 г. - Санкт-Петербург: Тип. В. Киршбаума. 1881. - С.112-113.

³⁴ Обзор внешней торговли.... за 1897 г. - Санкт-Петербург: Тип. М.П. Фроловой, 1899. - С. 46.

ko'mir, mashinalar, kauchuk, paxta, jun, kalava ip eksport qilardi. Rus eksportining yuqorida ko'rsatilgan barcha moddalari bo'yicha Britaniya bozorining Rossiya uchun ahamiyati oshib bordi. Biroq, Yevropaning eng yirik g'alla bozori - Britaniya uchun kurashda Rossiya AQSH, Argentina va Hindistonning raqobatiga dosh bera olmadi. Buyuk Britaniyaga import qilinadigan jami g'allada rus donining ulushi juda kam bo'lib, 5% dan oshmadi. Garchi Buyuk Britaniya mashina va asbob-uskunalar, rangli metallarning rus bozoriga olib kirishini oshirgan bo'lsada, shunga qaramay, uning Rossiya bilan savdodagi ulushi kamaydi.

XIX asr oxiri – XX asr boshida o'rtacha besh yilliklar bo'yicha Rossiyaning Buyuk Britaniya bilan savdosi dinamikasi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topdi: eksport (1899-1903-yy. – 167,2 mln. rub., 1904-1908-yy. - 230,8 mln. rub., 1909-1913-yy. - 307,4 mln. rub.), import (1899-1903-yy. – 114,5 mln. rub., 1904-1908-yy. - 108,3 mln. rub., 1909-1913-yy. - 150,4 mln. rub.)³⁵.

Rossiyaning AQSH bilan savdo-sotig'i bu davlat mustaqilligi rasman e'lon qilinishidan oldin paydo bo'ldi.

Shimoliy Amerika mustamlakalarining Mustaqillik uchun urushi yillarida Rossiya tomonidan olib borilgan qurolli betaraflik siyosati AQSH uchun qulay bo'lib chiqdi. Rossiya va AQSH o'rtasidagi savdo sohasidagi birinchi aloqalar Shimoliy Amerika mustamlakalarining Buyuk Britaniyadan mustaqillikni qo'lga kiritish uchun olib borgan urushning yakunlovchi davriga to'g'ri keladi, deb hisoblanadi.

Keyingi yillarda ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalarining dinamikasini 1783-1803-yillarda Sankt-Peterburg portiga kelgan kemalar sonidan ko'rish mumkin: 1783-y. -1, 1789-y. – 17, 1793-y. – 30, 1799-y.- 62, 1803 y.- 84³⁶.

Rossiya savdo flotining Amerika qirg'oqlarida paydo bo'lishi odatda XIX asrning birinchi o'n yilligiga to'g'ri keladi. Rus savdogari K.Anfilatov 1806-1807 yillarda Sankt-Peterburg va Arxangelskdan Amerikaga ikkita katta kema yuborgan va hukumatning qo'llab-quvvatlashiga erishgan.

Rossiya-Amerika savdosi chinakam tarzda 1807-yilgi embargo bekor qilingandan va 1809-yilda ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan keyin rivojlana boshladi.

Rossiyaning AQSH bilan savdo-sotig'i huquqiy asoslari 1824-yil 5(17)-aprelda "Butun Rossiya imperatori va Amerika Qo'shma Shtatlari hukumati o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkam saqlash to'g'risidagi konvensiya", shuningdek, 1832-yil 6-(18) dekabrda "Savdo va dengizda kemalar qatnovi haqida traktat"ning imzolanishi bilan solindi.

Shuni ta'kidlash lozimki, 1832-yildagi savdo bitimi imzolanishi arafasida va undan keyingi o'n yilliklarda Rossiya va AQSH o'rtasidagi savdo hajmi va rivojlanish dinamikasini o'rganish bilan bog'liq turli xil yondashuvlar va baholashlar mavjud.

³⁵ Россия 1913 год. Статистико-документальный справочник. Таблица. 5, 6 (https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/History/Stat/23.php) дата обращения: 25.05.2022.

³⁶ Pitkin T. A statistical view of the commerce of the United States of America: its connection with agriculture and manufactures: and an account of the public debt, revenues, and expenditures of the United States. -Hartford: Printed by Charles Hosmer, 1816. - P.236-239.

I. Kurillaning fikricha, 1832-yilgi savdo bitimi tuzilgandan keyin tijorat, qanday paradoksal bo‘lib ko‘rilmasin, rus-amerika o‘zaro hamkorligining asosiy mazmuni bo‘lishdan to‘xtadi. Shartnoma tuzilgandan keyingi o‘ttiz yil davomida umumiy savdo hajmi oshmadi, ayrim nisbiy ko‘rsatkichlarda esa pasaydi. Uning hisoblariga ko‘ra, Rossiya-AQSH tovar aylanmasi quyidagicha bo‘lgan: 1832-y. – 3.749.481 doll., 1842-y.- 2.181.721 doll, 1852-y. – 2.282.100 doll., 1862-y. – 652.234 doll.³⁷

Qrim urushi singari, AQSHda Fuqarolar urushi davridagi harbiy harakatlar ham ikki davlat savdosiga katta zarar etkazdi.

1870-1880 yillar oralig‘ida umuman tovar ayirboshlash hajmi va xususan, eksport-import operatsiyalari ko‘rsatkichlari, ham o‘shish tendensiyalarini, ham sezilarli pasayish paytlarini namoyish etdi. Jumladan, 1870-yilda tovar aylanmasi 5,9 mln. rublga, 1873-yilda - 17,8 mln. rublga, 1875-yilda – 8,8 mln. rublga, 1880 yilda – 15,4 mln. rublga teng bo‘ldi³⁸.

XIX asrning oxirgi choragi - XX asr boshida Rossiya eksportining asosan xom ashyodan iborat bo‘lgan an‘anaviy xususiyati saqlanib qoldi. Rossiyaning AQSHga eksporti asosan dag‘al yung, xom teri va charmlar, platina, mo‘yna, zig‘ir, kanop, ulardan tayyorlangan mahsulotlar, qizilmiya ildizi, marganes va boshqalardan iborat bo‘ldi.

Amerika statistikasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 1897-yilda Rossiyadan AQSHga eksport hajmi 1,4 mln. doll. teng bo‘lib, 1896 yilga nisbatan 0,6 mln. dollarga oshgan³⁹.

Amerika iqtisodiyotida esa sanoat inqilobining yakunlanishi natijalari yaqqol ko‘rindi. Paxta, makkajo‘xori, guruch, donali xom kofe, tamaki, o‘g‘itlar, mol yog‘i, terilar, o‘simliklar va urug‘lar, yong‘inga chidamli g‘ishtlar, kauchuk, teri oshlovchi moddalar, bo‘yoqlar, mis, temir va po‘latdan yasalgan mahsulotlar bilan bir qatorda mashinasozlik sanoati mahsulotlari ham Rossiyaga keltirildi.

Rossiya va AQSHning ular amalga oshirgan tashqi savdoning umumiy hajmidagi ulushi katta ko‘rsatkichlarga erishmadi. Biroq, ayrim turdagi tovarlarni yetkazib berishda ikkala davlat bir-biri uchun nihoyatda ahamiyatli bo‘ldi.

XIX asrning oxirgi choragi - XX asr boshida o‘zaro savdo balansi nuqtai nazaridan, AQSHga rus eksporti hajmi Rossiyaga amerikaliklar importidan kam bo‘ldi. Bundan tashqari, bu farq sezilarli edi.

Masalan, 1908-1913 yillarda Rossiyaning AQSH bilan savdosida eksport-import ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘ldi: eksport (1908-y. -2,8 mln. rub., 1909-y. – 11,5 mln. rub., 1910-y.- 9,5 mln. rub., 1911-y. – 13,5 mln. rub., 1912-y. – 18,0 mln. rub., 1913-y. - 14,2 mln. rub.), import (1908-y. -79,2 mln. rub., 1909-y. – 57,9 mln. rub., 1910-y. - 74,4 mln. rub., 1911-y. – 102,5 mln. rub., 1912-y. – 87,4

³⁷ Курилла И.И. Заокеанские партнеры: Америка и Россия в 1830-1850-е гг. - Волгоград: Изд-во ВолГУ, 2005. - С.29-30

³⁸ Динамика экономического и социального развития России в XIX-начале XX вв. Внешняя торговля // Проект кафедры исторической информатики исторического факультета МГУ им. М.В. Ломоносова 2010-2011. (http://www.hist.msu.ru/Dynamics/Foreign_trade.htm) дата обращения: 02.08.2022.

³⁹ Commercial Relations of the United States with Foreign Countries During the year 1898. Volume II. - Washington: Government printing office, 1899. - P.507.

mln. rub., 1913-y. – 79,1 mln. rub.)⁴⁰.

Va nihoyat, shuni ta’kidlash kerakki, jahon bozoriga ma’lum tovarlarni (masalan, neft va neft mahsulotlari, shuningdek, g’alla) yetkazib berish masalalarida ikkala davlat raqobatchi sifatida harakat qildi.

“Rossiya imperiyasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari va ularning rivojlanishida Buyuk Britaniya va AQSH sarmoyalarining ishtiroki” deb nomlangan to’rtinchi bobda Rossiya iqtisodiyotining ishlab chiqarish tarmoqlariga, transport va kommunikatsiyalar sohalariga britaniyalik va amerikalik tadbirkorlarning sarmoyalari qay tarzda kirib kelganligi tadqiq qilingan.

Britaniya sarmoyasi XIX asrdan boshlab Rossiya iqtisodiyotida, xususan, sanoatda ma’lum o’rinni egallay boshlaganiga qaramay, uning Rossiyaga kirib borish jarayoni uzoq tarixiy ildizlarga ega.

Xususan, 1569-yilda inglizlar Vichegda (Vologda guberniyasining Solvichegodsk uezdi) temir zavodi qurish uchun ruxsat oldilar⁴¹. XVIII asrda inglizlar Chemberlen va Kozens Peterburgda birinchi chit fabrikasiga asos soldilar⁴². Bundan tashqari, Mey va Stivensning shakar zavodi, Gardnerning arqon zavodi, Grezen va Porlandning kraxmal, kukun va ko’k tosh fabrikasini aytib o’tish mumkin.

Britaniya sarmoyalarining Rossiyaga dastlabki kirib kelishi davrida ustunlik qilgan tashkiliy shakl sifatida yakka tartibdagi tadbirkorlik yoki oilaviy biznes namoyon bo’ldi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa ko’pgina an’anaviy oilaviy korxonalar qo’shimcha mablag’lar topishga intilgan aksiyadorlik jamiyatlariga aylana boshladi.

Britaniya tadbirkorlarining Rossiya sanoatiga kirib borishi XIX asrning 60-70-yillaridagi islohotlardan oldin va keyin boshlanganligini ta’kidlash kerak. Britaniyaliklarning Rossiya iqtisodiyotiga kirib kelishi boshida savdo, ko’p hollarda, keyinchalik o’z ishlab chiqarishini yo’lga qo’yish uchun asos bo’lib xizmat qildi.

Masalan, Jon Grivzning Rossiyadagi savdo faoliyati XIX asr 70-yillarning ikkinchi yarmida Berdyanskda qishloq xo’jaligi texnikasi omborini ochgan paytdan boshlandi. Yig’ilgan sarmoya unga 1883-yilda qishloq xo’jaligi mashinalari va jihozlari hamda temir quyish zavodlarini tashkil qilish imkoniyatini berdi. 1899-yilda ushbu korxonalar majmuasi “Jon Grivs va K^o” savdo-sanoat jamiyatiga aylantirildi. Shirkatning Mariupol, Yuzovka, Chelyabinsk, Omsk, Pavlograd, Semipalatinsk shaharlarida omborlari bor edi⁴³. 1912-yil

⁴⁰ Динамика экономического и социального развития России в XIX - начале XX вв. Внешняя торговля (http://www.hist.msu.ru/Dynamics/Foreign_trade.htm) дата обращения: 09.08.2022.

⁴¹ Кулишер И.М. История русской торговли и промышленности. - Челябинск: Социум, 2003. - С.461; Середонин С.М. Сочинение Джильса Флетчера «Of the russe common wealth» как исторический источник. - Санкт-Петербург: Тип. И.Н. Скороходова. 1891. - С.127.

⁴² Иностранное предпринимательство и заграничные инвестиции в России: Очерки. - Москва: РОССПЭН, 1997. - С.54; Брандт Б.Ф. Иностранные капиталы. Их влияние на экономическое развитие страны Ч. 3. 4. - Санкт-Петербург: Тип. В. Киршбаума, 1901. - С.37.

⁴³ Акционерно-паевые предприятия России на 1912 г.: Составлено по официальным данным. / Под общ. ред. В.В. Лаврова. - Москва: Тип. А.П. Поплавского, 1912. - С.60.

ma'lumotlariga ko'ra, o'sha paytda 1.051.310 rubllik mahsulot ishlab chiqarilgan, ishchilar soni esa 730 kishini tashkil etgan⁴⁴.

Britaniyaliklarning Rossiya bozoridagi qiziqishi, asosan, to'qimachilik, neftni qazib olish va undan tayyor mahsulotlar olish, tog'-kon sanoati, qora va rangli metallurgiyani moliyalashtirishga qaratildi.

Britaniya sarmoyasining katta qismi ip ishlab chiqarish korxonalariga joylashtirildi, ulardan eng yirigi "Neva ip manufakturasi shirkati" edi. Bu yerda, Britaniya manfaatlari ortida "Kouts va K^o" ip tresti turgan. Ushbu trestdan tashqari, Rossiyaning to'qimachilik sanoatida britaniyalik sarmoyadorlarga tegishli "Jon Xabbar va K^o", "Tornton jun mollari shirkati" kabi kompaniyalar samarali faoliyat olib bordi.

XIX asrning 90-yillaridan boshlab Rossiya neft sanoatida ingliz sarmoyalarning ko'payishi kuzatildiki, ular, xususan, Grozniy tevaragidagi yangi konlarni o'zlashtirishda ishtirok etdi. Britaniyaliklar yangi korxonalar barpo etishmagan, ular asosan kasodga uchragan rus firmalarini sotib olardilar. Shuningdek, ko'plab mahalliy neft korxonalari aksiyalarining nazorat paketini sotib olib, Rossiya neft sanoatining katta sektorini o'z boshqaruviga oldilar. 1900-yillarning boshlariga kelib britaniyaliklar sarmoyasi Rossiyadagi 24ta neft kompaniyasini nazorat qildi.

Britaniyaliklar Boku atroflarida sarmoyasi qariyb 40 mln. rubl bo'lgan 11ta neft kompaniyasida joylashib olgandilar. Bundan tashqari, ular Grozniy neft sanoati rayonida sarmoyasi 11 mln. rubl bo'lgan 7 kompaniyada ham mustahkam o'rnamshib oldilar⁴⁵.

Ingliz neft sanoati kompaniyalari Rossiyaning boshqa neftni qazib oluvchi mintaqalarida ham ishlagan: Kaspiyorti viloyati, Tiflis guberniyasida, Farg'onada, Saxalinda.

Britaniyalik tadbirkorlarning manfaatlari tog'-kon sanoatiga ham yoyildi. Britaniya sarmoyasi ham sof ingliz korxonalarini, ham ingliz kompaniyalarining moliyaviy nazorati ostida bo'lgan rus kompaniyalarini tashkil etish orqali harakat qildi.

Britaniya sarmoyalari ishtirokida ish olib borgan kompaniyalar qatorida "Kavkaz mis sanoati jamiyati", "Spassk mis rudalari aksiyadorlik jamiyati", "Qishtim kon zavodlari jamiyati", "Janubiy Ural tog'-kon sanoati jamiyati", "Angliya-Sibir korporatsiyasi", "Perm korporatsiyasi", "Lena oltin qazib olish shirkati" ("Lenzoto") va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, Britaniya sarmoyalari o'rmon va yog'ochsozlik sanoatida boshqa xorijiy sarmoyalarga qaraganda ko'proq ishtirok etgan, ya'ni 25,5 mln. rubllik xorijiy sarmoyalarning umumiy hajmidan 10,6 mln. rublni britaniyaliklar investitsiya qilgan⁴⁶.

⁴⁴ Список фабрик и заводов Российской империи / Под ред. В.Е. Варзара. - Санкт-Петербург: Тип. В.Ф. Киршбаума, 1912. Гр. VIII. - С.255.

⁴⁵ Фурсенко А.А. Нефтяные тресты и мировая политика.1880-е годы- 1918 г. - Москва, - Ленинград: Наука, 1965. - С.134.

⁴⁶ Эвентов Л.Я. Иностранные капиталы в русской промышленности. - Москва, - Ленинград: Гос. Соц.-эконом. изд.-во., 1931. - С.86.

XX asr boshida Britaniya sarmoyasi (507,5 mln. rub.) rus iqtisodiyotidagi investorlar ro'yxatida faqat fransuzlarnikidan keyingi ikkinchi o'rinni egalladi. Ingliz sarmoyalari tog'-kon, to'qimachilik va metallurgiya sanoatiga kiritilgan umumiy investitsiyalar miqdorining 4/5 qismini tashkil etdi.

Amerika sarmoyasining Rossiya iqtisodiyotiga, xususan, sanoat va transportga kirib kelishiga e'tibor qaratisa, u Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va Belgiya sarmoyalaridan ancha orqada edi.

Rossiyada temir yo'l qurilishining boshlanishida xorijiy davlatlar, jumladan, AQSH tajribasidan foydalanildi. Amerikaning ma'lum ishbilarmon doiralari ham Rossiyadagi temir yo'l ishiga qiziqish bildirdi.

1843-yil oxirida Peterburgdagi Aleksandrovskiy cho'yan quyish va mexanika zavodi harakatdagi tarkibni (parovoz va vagonlar) ishlab chiqarishni tashkil qilish, ishchilarni o'qitish hamda mashinist va konduktorlarni tayyorlash maqsadida AQSHning Baltimor shahridan bo'lgan J.D.Xarrisonning firmasiga 6 yilga ijaraga berildi.

Aleksandrovskiy zavodi faktik jihatdan ta'mirlash va yig'ish zavodiga aylantirildi. Ushbu zavodda 1844-yildan 1856-yilgacha Amerikadan bojsiz import qilingan materiallaridan 196 parovoz, 253 yo'lovchi va 2600 yuk vagonlari va platformalar tayyorlandi⁴⁷.

1874-yil avgust oyida "Bolduin" parovozlarining bir nechtasi Nikolayev portiga yetkazildi. 1876-1877-yillarda "Keokuk end De-Moyn reytroud K^o" eksport firmasi boshqaruvchisi F.K.Xeyn Kursk-Xarkov va Oryol-Gryazskaya temir yo'llari va Rossiya Janubining g'allakor hududlarni Qora dengiz portlari bilan bog'lashi kerak bo'lgan va hali qurilayotgan temir yo'l liniyalari uchun 40ta "Bolduin" parovozlarini yetkazib berishni tashkil qildi⁴⁸.

XIX asrning 90-yillarida "Bolduin" firmasi Sormovo temir chiqarish, po'lat quyish va mexanika zavodida parovozlar bo'limini tashkil etish va jihozlashda yordam berdi.

Rossiyada birinchi "Zinger" mashinalari 1859-1861-yillarda sotildi. "Zinger" tikuv mashinalari bozorda mustahkam o'rnashgach, kompaniya rahbariyati tikuv mashinalarining butun savdosini o'z qo'liga olishga qaror qildi va 1897-yilda asosiy sarmoyasi 5 mln. rubl bo'lgan "Zinger manufaktura kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatiga asos soldi⁴⁹. Keyinchalik asosiy sarmoya 10 mln. rublgacha oshirildi.

J.S.Kuinning fikricha, "Makkormik" mashinalari 1858 yilda Rossiyaga yetib keldi⁵⁰. 1870-yillar oxiriga kelib "Makkormik" Moskva va Xarkovda agentliklariga, Odessada esa doimiy vakillikka ega bo'ldi. Keyinchalik agentliklar tarmog'i 1896-yilga kelib 59tagacha ko'paydi.

⁴⁷ Соловьева А.М. Железнодорожный транспорт в России во второй половине XIX в. - Москва: Наука, 1975. - С.54.

⁴⁸ Куропятник Г.П. Россия и США. Экономические, культурные и дипломатические связи. 1867-1881. - Москва: Наука, 1981. - С.69.

⁴⁹ Указатель действующих в Империи акционерных предприятий. / Под общ. ред. В.А. Мамонова. - Санкт-Петербург: Тип. Исидора Гольдберга, 1903. - С.374.

⁵⁰ Queen G.S. The McCormick Harvesting Machine Corporation in Russia // Russian Review. 1964. April. Vol. 23. - P. 164.

1902-yilda uchta eng nufuzli kompaniyalar - "Makkormik", "Diring" va "Miluoki" - birlashishi natijasida "International Harvester" tresti tashkil etildi. Trestning barcha a'zolari Rossiya bozorida jami 2 mln. dollarga mahsulot sotgan, bu esa uning ehtiyojlarini taxminan 2/3 qismini qoplagan.

1910-yilda Makkormik kompaniyasi Moskva-Qozon temir yo'lining (Moskva viloyati) Lyubersi stansiyasi yaqinida amerikalik Tomas Purdega tegishli bo'lgan tormoz zavodini sotib oldi. 1911-yilda sotib olingan zavod va ba'zi yangi qurilgan sexlar negizida qishloq xo'jaligi mashinalari ishlab chiqarila boshlandi. 1910-yilda AQSHning Men shtatida «International Harvester Co in Russia» ("Rossiyadagi xalqaro yig'im-terim mashinalari kompaniyasi") nomli sho'ba kompaniyasi tashkil etildi.

1898-yil 3-iyulda Rossiyada tashkil etilgan "Vestingauz tormozlari jamiyati" tormoz tizimlari, elektr-pnevmatik signalizatsiyasi, vagonlarni isitish tizimlari va boshqalarni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha AQSHdagi "The Westinghouse Electric Co" kompaniyasining sho'ba korxonasi edi.

Jamiyat Peterburgdagi yirik mexanika zavodini sotib oldi va jihozladi, ammo 10 yil ichida amerikacha ishlab chiqarish standartlarini joriy etishda juda kam muvaffaqiyatga erishdi. Unga, Peterburgdagi mexanika zavodidan tashqari, Peterburg va Moskvadagi elektrotexnika idoralari tegishli edi.

Tadqiq qilingan davrda Rossiya iqtisodiyoti asosiy tarmoqlarining rivojlanishi xorijiy sarmoyalarning faol ishtirokida ro'y berdi va bu jarayonda Buyuk Britaniya va AQSH o'zining imkoniyatlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan o'rin egalladi.

XULOSA

Dissertatsiya ishi doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Turli tarixiy davrlarda Rossiya davlatida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar majmui xorijiy davlatlar, jumladan, Buyuk Britaniya va AQSH, bilan iqtisodiy aloqalarini tashkil qilish va amalga oshirishning huquqiy asosi bo'ldi. Ushbu hujjatlar xorij davlatlari va fuqarolari bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik faoliyatining muayyan tomonlarini tartibga solib turdi. Chet elliklar va ularning mol-mulki Rossiya qonunlariga bo'ysungan, ularning himoyasi va homiyligidan bahramand bo'lgan. Xorijliklar uchun savdo va boshqa kasb-hunar bo'yicha ba'zi cheklovlar, asosan, tarmoq nizomlarida belgilandi. Tadqiq qilingan davrda rossiyalik va ajnabiy tadbirkorlar o'rtasidagi tenglik tamoyilini e'lon qiluvchi qonunlar qabul qilindi.

2. Rossiya imperiyasida tashqi iqtisodiy aloqalar, shuningdek, tadbirkorlik vakillik institutlarini tashkil qilish va boshqarish tizimini yaratish bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. Tadqiq qilingan davrda tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Markaziy boshqaruv apparatini bosqichma-bosqich isloh qilish natijasida, asosan, tarmoq organlari tashkil qilindi va rivojlantirildi. Rossiyada tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyati idoraviy vazifalarni taqsimlash, davlat boshqaruvi sohalari va vakolatlari chegaralarini belgilash edi. Tashqi iqtisodiy

siyosatdagi o'zgarishlar Rossiya tarixiy jarayonidagi eng muhim voqealar bilan bog'liq tarzda sodir bo'ldi.

3. Rossiyaning xorijiy davlatlar, jumladan, Buyuk Britaniya va AQSH bilan iqtisodiy aloqalari tarixiy evolyutsiyasining xususiyati, ko'lami va dinamikasini aks ettiruvchi jihatlar orasida moliya sohasi muhim o'rin tutdi. Rossiya qimmatli qog'ozlarini G'arbda, asosan London, Amsterdam, Berlin va Parijda sotish keng tarqaldi. 1897 yilda oltin standarti joriy etilgandan so'ng, xususiy zayomlar hajmi davlat zayomlari hajmidan oshib ketdi. XIX asr 80-yillar oxiri - 90-yillar boshidan Britaniya pul bozori Rossiya davlatining yirik zayomlarini joylashtirishda deyarli ishtirok etmadi. Ikki davlat o'rtasida siyosiy qarama-qarshiliklarning mavjudligi bunga asosiy to'siq edi. Rossiya hukumatining AQSHda o'z zayomlarini joylashtirishga urinishlari, kamdan-kam holatlardan tashqari, muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Rossiyaga zayom taqdim etish istiqboli Amerika banklarini, birinchi navbatda, savdo aloqalarini kengaytirish va Rossiyada amerikaliklar tadbirkorligini kengaytirish vositasi sifatida qiziqirdi.

4. Jismoniy va tijorat infratuzilmasi asosiy komponentlarining rivojlanish darajasi iqtisodiyotning doimiy o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondira olmadi. Rossiya tashqi savdo aylanmasining asosiy hajmi, shu jumladan Buyuk Britaniya va AQSH bilan, dengiz transporti orqali amalga oshirildi. Dengiz orqali rus yuklarini tashishning katta qismi xorijiy kemalarda amalga oshirildi. Rossiyaning tashqi savdosida britan flotining ishtiroki boshqa savdo flotlari bilan solishtirganda eng katta edi. Rossiyaning umumiy tashqi savdo dengizchiligida AQSH bayrog'i ostidagi savdo kemalarining ishtiroki sezilarli emasdi. Rossiya portlarining holati xalqaro savdo talablaridan orqada qoldi. Rossiya dengiz savdosida kema yollash biznesining og'irlik markazi Rossiyadan Londonga ko'chdi. Xalqaro telegraf kompaniyalari liniyalariga ulanish Rossiya tashqi savdosi uchun muhim voqea bo'ldi.

5. Rossiyaning Buyuk Britaniya va AQSH bilan savdo aloqalarining tarixiy rivojlanishi davlatlarning o'zaro manfaatdorligiga asoslanib, jahon iqtisodiy tendensiyalariga ham mos keldi. Davlatlararo shartnomalar bilan tartibga solingan rus-britan va rus-amerika savdosiga geografik va siyosiy omillar katta ta'sir ko'rsatdi. O'zaro savdo-sotiq dinamikasi o'sish va pasayish davrlari bilan tavsiflandi. Buyuk Britaniya uzoq vaqt mobaynida Rossiyaning tashqi savdo sheriklari orasida yetakchi o'rinni egallab keldi. Tadqiq qilingan davrda o'zaro savdo ko'lami sezilarli darajada oshdi, sotiladigan tovarlar nomenklaturasi kengaydi.

6. Hajmi kichik Rossiya-AQSH savdo aloqalari o'z ko'rsatkichlari bo'yicha Buyuk Britaniya bilan savdo-sotiqdan sezilarli darajada orqada edi. Rossiya-AQSH savdosining rivojlanishiga ikki davlatning geografik jihatdan bir-biridan uzoqligi, shuningdek, ikki mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari ta'sir ko'rsatdi. Ayrim turdagi tovarlarni yetkazib berishda ikkala davlat ham bir-biri uchun nihoyatda ahamiyatli edi. Rossiyaning AQSH bilan savdosida asosan xomashyodan iborat bo'lgan rus eksportining an'anaviy xususiyati kuzatildi.

AQSHdan paxta va boshqa tovarlar bilan bir qatorda mashinasozlik sanoati mahsulotlari ham olib kelingan.

7. Hajmi bo'yicha Rossiya iqtisodiyotining real sektoridagi Britaniya sarmoyasi AQSH sarmoyasiga qaraganda ustun keldi. Buyuk Britaniya, mablag'larni Rossiyaga kiritish orqali, o'z sanoati uchun mustahkam tayanch nuqtalarini yaratishga harakat qildi. Sanoatning alohida tarmoqlarida Britaniya sarmoyasining ishtiroki darajasi nafaqat ahamiyatli bo'ldi, balki ustunlikka ham erishdi. Ko'p hollarda savdo sohasi britaniyaliklar tomonidan keyinchalik Rossiya imperiyasida o'z ishlab chiqarishlarini o'rnatish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Britaniya moliyalarining Rossiyaga kirib kelishi ham vaqti jihatdan, ham sanoatning muayyan tarmoqlari o'rtasida taqsimlanishi nuqtai nazaridan babbaravar bo'lmadi. Britaniya sarmoyasi to'qimachilik, metallurgiya, tog'-kon sanoati, neft, yog'och va yog'ochsozlik sanoatida hozir bo'ldi.

8. AQSH sarmoyalari Rossiya bozoriga Yevropaga qaraganda kechroq kirib kela boshladi. Amerikaliklar kam o'zlashtirilgan sohalarni izlashga majbur bo'ldilar. Amerika sarmoyasining Rossiyaga kirib kelishi davridagi iqtisodiy vaziyat ko'p hollarda qulay emasdi. AQSHning Rossiyada iqtisodiy hozir bo'lishinig katta qismi tikuv mashinalari ("Zinger") va don yig'ish texnikasi ("Xalqaro yig'im-terim mashinalari kompaniyasi") ishlab chiqaruvchi ikkita juda yirik kompaniya hisobiga to'g'ri keldi. Aynan ularning faoliyati 1900-1915-yillarda Rossiya iqtisodiyotida oldingi yillarga nisbatan amerikaliklar sarmoyasining o'sishini ta'minladi.

Tadqiqot yakunida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga joriy qilinadigan maxsus kurslarni tashkil etishda foydalanish uchun xorijiy davlatlar, shu jumladan, Rossiya, Buyuk Britaniya va AQSHning tashqi iqtisodiy aloqalari tarixiga oid hujjatlar to'plamini yaratish;

xalqaro iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirishda xorijiy davlatlarning tarixiy tajribasini o'rganish bilan bog'liq jahon tarixining dolzarb masalalariga bag'ishlangan teleko'rsatuvlar siklini tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, "O'zbekinvest" aksiyadorlik jamiyati bilan hamkorlikda xorijiy davlatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari tarixi bo'yicha o'quv-seminar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03./30.12.2021.Tar.26.03 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ХОЛЛИЕВ АЗИЗБЕК ГУЗАЛОВИЧ

**РОССИЯ В ПОСЛЕДНЕЙ ЧЕТВЕРТИ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА:
ИСТОРИЧЕСКИЙ ОПЫТ ОРГАНИЗАЦИИ И ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ
ЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ С ЗАРУБЕЖНЫМИ СТРАНАМИ (НА
ПРИМЕРЕ ВЕЛИКОБРИТАНИИ И США)**

07.00.03 – Всемирная история

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ИСТОРИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Ташкент -2023

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за № В2022.3.DSc/Tar153.

Докторская диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tdpu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net.uz)

Научный консультант:

-

Официальные оппоненты:

Рахмон Фармонов

доктор исторических наук, профессор

Мирзохид Акрамович Рахимов

доктор исторических наук, профессор

Рахбар Эргашевна Халикова

доктор исторических наук, профессор

Ведущая организация:

Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится «14» июля 2023 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 при Ташкентском государственном педагогическом университете (Адрес: 100185, г. Ташкент, улица Бунёдкор, дом 27. Тел.: (99871) 276-76-51; факс: (99871)276-76-51; tdpu_kengash@edu.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета (зарегистрирована за № 1780). (Адрес: 100185, г. Ташкент, улица Бунёдкор, дом 27. Тел.: (99871) 276-76-51; факс: (99871) 276-76-51.)

Автореферат диссертации разослан «27» июня 2023 года.

(реестр протокола рассылки № 23 от «27» июня 2023 года).



А.К.Киргизбаев

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор исторических наук, профессор.

С.Б.Тилабаев

Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, кандидат исторических наук.

Н.Х.Обломуродов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор исторических наук, профессор.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Исторические события и процессы, происходящие в настоящее время на международной арене, отличаются своей чрезвычайной сложностью и широкомасштабностью. Любые политические и экономические изменения, происходящие в условиях глобализации, оказывают существенное влияние на развитие стран мирового сообщества. Ситуация на мировых рынках усложняется, а экономические отношения между странами, естественно, коренным образом меняются. Межгосударственная конкуренция усиливается. Особенно, процессы, связанные с организацией и осуществлением экономических связей, занимают ключевое место в определении состояния отношений между различными странами мира. В частности, важное практическое значение в обеспечении стабильности не только экономической, но и политической ситуации на мировом уровне приобретают взаимоотношения стран, обладающих большой мощностью и потенциалом.

Ведутся научные исследования по вопросу о взаимных интересах стран, претендующих на лидерство в мировом масштабе, и их влиянии на международную обстановку, о торгово-экономических отношениях, эволюции борьбы за мировые рынки, о богатом историческом опыте развитых стран по осуществлению экономических взаимосвязей. В то же время, в различных странах предпринимаются усилия по диверсификации экономики, формирующейся на основе исторических интересов, по новому развитию исторически сложившихся международных торговых путей, налаживанию взаимовыгодных торгово-экономических отношений.

В последние годы в Узбекистане важное место занимают вопросы расширения многогранных и взаимовыгодных связей с зарубежными странами, поднятие на новый уровень качества отношений с такими странами, как Россия, США и Великобритания, развития торгово-экономического и инвестиционного сотрудничества с ними, совершенствования механизмов реализации эффективных и согласованных действий. Ибо, “Узбекистан сегодня занимает достойное место и имеет большой авторитет в мировом сообществе. Мы открыты для тесного сотрудничества и практического диалога со всеми государствами мира”¹. Поэтому сегодня актуально проведение исследований, направленных на углубленное изучение истории этих стран, изучение накопленного ими опыта по организации и осуществлению внешнеэкономических связей.

Кроме того, в такой ситуации актуальность приобретает проблема внедрения механизмов, обеспечивающих регулярное совершенствование экономики нашей страны, четкое определение задач, связанных с

¹ Мирзиёев Ш.М. Мы вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. Выступление на торжественной церемонии вступления в должность Президента Республики Узбекистан на совместном заседании палат Олий Мажлиса. - Ташкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2016. - С.32.

устойчивым экономическим развитием. Ведь это является одним из приоритетов национальной стратегии развития.

Представленная диссертация вносит свой определенный вклад в выполнение задач, обозначенных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 5 апреля 2018 года №УП-5400 «О мерах по коренному совершенствованию системы Министерства иностранных дел Республики Узбекистан и усилению его ответственности за реализацию приоритетных направлений внешнеполитической и внешнеэкономической деятельности», от 23 апреля 2019 года №ПП-4297 «О мерах по дальнейшему совершенствованию административных процедур при осуществлении внешнеэкономической деятельности», от 29 июня 2018 года №ПП-3818 «О мерах по дальнейшему упорядочению внешнеэкономической деятельности и совершенствованию системы таможенно-тарифного регулирования Республики Узбекистан» и в других принятых в данной области нормативно-правовых актах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике. Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий в Республике Узбекистан «Пути формирования и осуществления системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации². В рамках комплексного изучения российской экономики, истории, политики и культуры научные исследования, касающиеся поэтапного исторического развития экономических связей с зарубежными странами, в том числе с Великобританией и США, осуществляются в ряде ведущих мировых исследовательских центров и высших учебных заведений, в частности в таких, как: Московский государственный университет им. М.В. Ломоносова, Институт российской истории РАН, Санкт-Петербургский институт Истории РАН, Центр североамериканских исследований Института всеобщей истории РАН, Лондонский университет (Великобритания), Ноттингемский Университет (Великобритания), Кембриджский университет (Великобритания), Нью-Йоркский университет (США), Гарвардский университет (США) и др.

В результате проведенных в мире научных изысканий были получены следующие научные результаты по накоплению исторического опыта в сфере организации и осуществления экономических связей России с зарубежными странами, и в частности с Великобританией и США: на основе статистических данных были прослежены динамика экономического и

² Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации подготовлен на основе следующих ресурсов: <https://www.msu.ru/>, <https://iran.ru/>, <http://www.spbiiran.ru/>, http://www.hist.msu.ru/Dynamics/Foreign_trade.htm, <https://www.london.ac.uk/>, <https://www.nottingham.ac.uk/>, <https://www.cam.ac.uk/>, <https://www.nyu.edu/> и др.

